

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH
MUHANDISLARI
INSTITUTI**

**«GIDROMELIORATIV ISHLARNI
MEXANIZATSİYALASH»
kafedrasi**

«MELIORATSIYA MASHINALARI»

fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun

METODIK Q'LLANMA



Toshkent - 2019

Ushbu metodik qo'llanma institut ilmiy uslubiy kengashining «17» oktyabr 2019 yilda bo'lib o'tgan 6-sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga ruxsat etildi.

Metodik qo'llanma «Melioratsiya mashinalari» fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning mazmuni, hajmi va bajarish usullari, har bir ish bo'yicha bajariladigan hisobot mazmunlari bayon etilgan.

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi tomonidan «Melioratsiya mashinalari» fani bo'yicha tasdiqlangan dastur asosida tayyorlandi.

Ko'rsatma 5650300 - Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash bakalavr ta'lim yo'nalinishi talabalari uchun «Melioratsiya mashinalari» fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar: **Xudaev I.J.** – t.f.n., dotsent
Bekchanov F.A. – assistent
Xakimov B.B. -dotsent v.b.

Taqrizchilar: **Muratov O.**- “O'zsuvtamirfoydanish” Respublika birlashmasi qoshidagi “Gidromexanizatsiya” DUK, “Rejalarashtirish va ishlab chiqarish” bo'limi boshlig'i

Axmedov I.- t.f.n.dotsent

Amaliy ish № 1.

Mavzu: MELIORATSIYA MASHINALARINI O‘TUVCHANLIKKA HISOBBLASH. **(2 soat).**

Ishning maqsadi: Melioratsiya mashinalarining yurish uskunalarini, ularning o‘tuvchanlik qobiliyati, o‘tuvchanlikka ta’sir etuvchi omillar va hisoblash asoslarini o‘rganish.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Melioratsiya mashinalarida qo‘llaniladigan yurish uskunalarini umumiy tuzilishi, turlari va qo‘llash sohalarini o‘rganing.
2. O‘rmalovchi yurish uskunasiga ega bo‘lgan melioratsiya mashinasini boshlang‘ich qiymatlar asosida o‘tuvchanlikka hisoblang.
3. Turli xil toifadagi tuproqlarda mashinaning o‘tuvchanligi hisobi natijalarini taqqoslab uning hisobiy chizmasini tuzing.
4. Bajarilgan ishlar bo‘yicha hisobot tuzing. Hisobotda mashinaning o‘tuvchanligini yaxshilash yuzasidan xulosa va texnik takliflar bering.

Hisoblash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar

Jadval-1.

№	Ko‘rsatkichlar	Variantlar										
		1-12	2-13	3-14	4-15	5-16	6-17	7-18	8-19	9-20	10-21	11-22
1.	Grunt toifasi	I	II	III	IV	II	I	IV	III	I	II	IV
2.	Mashinaga vertikal ta’sir ko‘rsatuvchi kuchlarning yig‘indisi. R ₁ , kn.	29,0	50,0	80,0	70,0	55,0	40,0	22,0	90,0	130,	90,0	80,0
3.	O‘rmalovchi zanjirning erga tekkan qismining uzunligi. l _b , m	3	2,5	4	3,5	2,0	2,4	1,9	3,0	2,8	1,9	3,0
4.	O‘rmalovchi uskuna zanjirining eni. v, m.	0,40	0,50	0,60	0,35	0,45	0,55	0,6	0,40	0,35	0,45	0,50
5.	Mashina massasi. t.	6,0	7,0	9,35	11,8	14,0	30,0	16,8	11,9	13,3	18,9	27,8
6.	Bo‘ylama tekislik-dagi bosim marka-zidan mashina o‘qigacha bo‘lgan masofa. X _b , m	0,1	0,15	0,09	0,13	0,19	0,2	0,12	0,15	0,22	0,18	0,08
7.	Ko‘ndalang kesim-dagi yuzada, bosim markazidan mashina o‘qigacha bo‘lgan masofa. U _B , m.	0,08	0,15	0,05	0,3	0,09	0,1	0,17	0,2	0,33	0,4	0,21

Mashinaning o‘tuvchanligi deb, uni maksimal kuchlar ta’siri ostida ishlayotganda tuproq yuzasida yuruvchanligini ta’minlashga aytildi.

Melioratsiya mashinalarida asosan g‘ildirakli va o‘rmalovchi yurish uskunalarini qo‘llaniladi va ko‘p xollarda tortish kuchini yuqoriligi o‘rmalovchi yurish uskunasini qo‘llashni taqozo etadi.

O‘rmalovchi yurish uskunasining o‘lchamlari asosan tuproqqa ruxsat etiladigan solishtirma bosim orqali aniqlanadi.

Tuproqqa mashinaning tayanch yuzasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$A = \frac{R_1}{[P]}; \mathcal{M}^2 \quad (1)$$

bu yerda: R_1 - mashinaga vertikal ta’sir ko‘rsatuvchi kuchlarning yig‘indisi. kN

$[P]$ -tuproqqa ruxsat etiladigan solishtirma bosim.kPa

1 n/m²=1 Pa. 1 MPa=1000 kPa=10⁵ Pa

1 n= 1 kg·m/s². 1 kn=1000 n.

1 m³=1000 litr =1000 dm³=10⁵ sm³.

$[P]$ va p_o ning qiymatlari.

Jadval-2.

No	Grunt turi	$[P]$, n/m ²	p_o , n/sm ²
1	Qattiqtuproq ,quruq mergel i lyoss	(11...15) · 10 ⁵	11...13
2	Qattiq tuproq,o‘rtacha namlikdagi,	(8...10) · 10 ⁵	7...10
3	Qattiq va o‘rta namlikdagituproq	(6...7) · 10 ⁵	5...6
4	Yirik qum.	(4...6) · 10 ⁵	3...4,5
5	Yumshatilgan qum,haydalgan tuprq, nam (ho‘l, tuproq).	(2...4) · 10 ⁵	2...3
6	Botqoq tuproq. (namligi juda yuqori).	(1...3) · 10 ⁴	1,2...1,5

O‘rmalovchi uskunaning balandligi:

$$H = \frac{l_6}{4...5}; \mathcal{M} \quad (2)$$

bu yerda: l_b -o‘rmalovchi zanjirning erga tekkan qismining uzunligi. m

O‘rmalovchi uskuna zanjirining eni:

$$B_u = \frac{l_6}{6...7}; \mathcal{M} \quad (3)$$

O'rmalovchi yurish uskunasini umumiyligi eni: $V_o = (0,6 \dots 0,8) \cdot l_b$, m
O'rmalovchi zanjir o'qlari orasidagi masofa: $V_1 = V_g - b$; m.
bu yerda: b —zanjirning eni: m

O'rmalovchi yurish uskunasini taqqoslash uchun chiziqli o'chamlar:

$l_b/b = 7 \dots 8$; - oddiy turdagilar uchun;
 $l_b/b = 4,8 \dots \%$. – botqoq turdagilar uchun;
 $V_g/L^1 = 0,75 \dots 0,83$ – ko'p tayanchli o'rmalovchi yurish uskunalari uchun;
 $V_g/L^1 = 0,8 \dots 0,9$ - kam tayanchli o'rmalovchi yurish uskunalari uchun;
bu yerda: L^1 —o'rmalovchi aravachanining gabarit uzunligi; m.


$L^1 = (1,14 \dots 1,18) \cdot l_b$; m. (kichik qiymatlar juda bo'sh tuproqlar uchun qabul qilinadi.).

Tuproqqa beriladigan o'rtacha solishtirma bosim quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P_{\text{y}_P} = \frac{P_0 + P_{0P}}{2}; \kappa \pi a \quad \text{yoki} \quad R = m \cdot g / (2b \cdot L) < [P]; \text{n/m}^2. \quad (4)$$

bu yerda: $P_o = P_{\min}$ —mashina old qismining tuproqqa beradigan bosimi, kPa

$P_{op} = P_{\min}$ —mashina orqa qismining tuproqqa beradigan bosimi, kPa



1-chizma.O'rmalovchi yurish uskunasini o'tuvchanlikka hisoblash sxemasi.

O'rmalovchi uskunasining yurishidagi bo'ylama bosimi: (maxva min).

$$P_{\frac{\max}{\min}} = \frac{R_1}{2 \cdot b \cdot l_B} \cdot \left(l \pm \frac{6X_B}{l_B} \right); \kappa \Pi a \quad (5)$$

bu yerda: X_B – bo'ylama tekislikdagi bosim markazidan mashina o'qigacha bo'lgan masofa, m.

+ - maksimal bosimda, P_{\max}

- - minimal bosimda, P_{\min}

O'rmalovchi uskunasining yurishidagi ko'ndalang bosimi. (maxvamin).

$$P_{\frac{\max}{\min}} = \frac{R_1}{2 \cdot b \cdot l_B} \cdot \left(1 \pm \frac{2 \cdot Y_B}{B_1} \right); \kappa \Pi a \quad (6)$$

bu yerda: Y_B -ko'ndalang kesimdagi yuzada, bosim markazidan mashina o'qigacha bo'lgan masofa. m.

Amaliy ish № 2

Mavzu: OSMA VA TIRKAMA PLUGLI KANAL QAZGICH MASHINALARINI HISOBLASH. (4 soat)

Ishning maqsadi: Passiv ish jihoziga ega bo'lgan kanal kazgich mashinalarining umumiyl tuzilishi, ishslash jarayonlari va hisoblash usullarini o'rGANISH.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Osma va tirkama kanal qazgich mashinalarining konstruksiyalari, ishslash asoslari, turlari, qo'llash sohalarini o'rGANING.
2. Passiv ishchi jihoziga ega bo'lgan kanal qazgich mashinalarini yutuq va kamchiliklarini aniqlang.
3. Berilgan variantlar asosida osma va tirkama plugli kanal qazgich mashinalarini hisoblang..
4. Xulosa va texnik takliflar.

1. Kanal qazgichning asosiy ko'satkichlarini aniqlash:

1.1. Kanalning ko'ndalang kesimining yuzasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi::

$$A = (b_k + m h_k) h_k; \quad m^2 \quad (7)$$

bu yerda: b_k -kanal tubining eni, m

m-nishablik koeffitsienti
 h_k -qazilayotgan kanalni chuqurligi, m

Hisoblash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar

3-jadval.

№	Ko‘rsatkichlar	Variantlar											
		1-13	2-14	3-15	4-16	5-17	6-18	7-19	8-20	9-21	10-22	11-23	12-24
1	Grunt toifasi	1	II	1	II	1	1	II	3	II	1	II	1
2	Qazilayotgan kanalning chuqurligi. h_k , m	0,5	0,6	0,7	1,0	0,9	1,1	1,2	0,8	0,6	0,9	1,2	0,6
3	Qazilayotgan kanal tubining eni, b_k , m	0,3	0,4	0,5	0,7	0,3	0,4	0,6	0,5	0,3	0,6	0,3	0,2
4	Nishablik koeffitsienti, m	1:1	1:2	1:1	1:2	1:1	1:2	1:2	1:1	1:2	1:1	1:2	1:1
5	Ishchi jihozini o‘rnatalishi.	Osma				tirkama				osma			

1.2. Kanal qazgich ishchi jihozining o‘lchamlari:

- a) lemexni eni: $v_l = b_k$, m
- b) ag‘dargich balandligi (orqa tomonidan): $h_l = (1,2 \dots 1,3) \cdot h_k$, m
- v) ag‘dargichlar orasidagi masofa. $v_{ag'd} = (1,1 \dots 1,5) \cdot (b_k - 2m h_k)$; m
- g) ag‘dargichning uzunligi: $l = \frac{h_k}{\tan \varphi}$; m.

Bu yerda: φ -plug pastki qismining gorizontga nisbatan og‘ish burchagi; grad

1.3. Plugli kanal qazgich mashinasining texnik ish unumдорligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi;

$$P_t = A \cdot V_{yur}; \quad \text{m}^3/\text{soat} \quad (8)$$

bu yerda: V_{yur} -kanal qazgichning ish xolatidagi yurish tezligi.m/soat.(mashinaning texnik tasnifidan qabul qilinadi).

2. Kanal qazgichga ta’sir qiladigan barcha kuchlarning yig‘indisini aniqlash.

$$\sum F = F_o^{yu} + F_{m^n}^{yu} + F_{ish.} + F_i; \quad \text{Kn} \quad (9)$$

bu yerda: F_o^{yu} -osma ish jihozli kanal qazgichning yurishiga ta’sir etuvchi qarshilik kuchlari. kN

$F_{m^n}^{yu}$ - tirkama ish jihozining yurishdagi qarshilik kuchi. kN

$F_{ish.}$ - ishchi jihoziga ko‘rsatiladigan qarshilik kuchi.kN

F_i - inretsiya kuchi. kN

$$F_o^{yu} = (R_1 + R_2) (f_m \pm i) \text{ kH} \quad (10)$$

bu yerda: R_1 –yurish uskunasiga tuproqning normal ta'sir kuchi , kN. Bu kuch 2 chizma orqali $Z=0$. shart orqali aniqlanadi.(2-chizma).

R_2 -yordamchi chang‘i yoki g‘ildirak tayanchiining tuproqqa beradigan normal ta'sir kuchi. Bu kuch 2-chizma yordamida $\Sigma M_A=0$ shart orqali aniqlanadi.

f_m –mashinaning yurishdagi qarshilik koeffitsienti. (Ilova-P.1.)

i- Mashinaning yurishdagi qiyalik nishabi. ($i \approx 0$)

$$R_1 = (m_t + m_{ish.}) g + \Sigma R_v - R_2; \text{ kN} \quad (11)$$

bu yerda: m_t –traktor massasi. t. (Ilova-P.4.)

$m_{ish.}$ - ishchi jihozining massasi.t. $m_{ish.} = (0,08 \dots 0,2) \cdot m_t$; t.

g – jismlarning erkin tushish tezlanishi; $g = 9,81 \text{ m/s}^2$

ΣR_v –kanal qazgichning ishchi jihoziga ta'sir qiluvchi kuchning vertikal tashkil etuvchisi. kN

$$\Sigma R_v = \Sigma R_u \sin \alpha - \Sigma R_n \cos \alpha; \text{ kN} \quad (12)$$

bu yerda: ΣR_u va ΣR_n - urinma va normal ta'sir etuvchi qarshilik kuchlari. Kn.

$$\Sigma R_u = F_1 + F_2 + F_3 + F_4 + F_5; \text{ kN} \quad (13)$$

$$\Sigma R_n = (0,2 \dots 0,5) \cdot \Sigma R_u; \text{ kN} \quad (14)$$

α - qirqish burchagi, grad. ($\alpha = 45 \dots 60^\circ$)

$$R_2 = \frac{m_{uu} \cdot g (X_{uu.} + X_B) + \sum R_B (X_K + X_B) - \sum R_\Gamma (Z_K + Z_\Gamma)}{X_B + X_\Gamma + f_m^1 (h + Z_\Gamma)}; \text{ kN} \quad (15)$$

$$\Sigma R_r = \Sigma R_u \cdot \cos \alpha + \Sigma R_n \cdot \sin \alpha, \text{ KH} \quad (16)$$

bu yerda: F_1 - tuproqning ish jihoziga ko'rsatadigan qarshiligi, kN.

$$F_1 = K_k \cdot A \cdot 10^3 \text{ kN} \quad (17)$$

K_k –tuproqning solishtirma qazish qarshiligi, Mpa. (Ilova-P.2.)

F_2 -tuproq og'irlik kuchining qarshiligi. kN;

$$F_2 = A \cdot l \cdot \rho_t \cdot g \cdot 10^{-3}, \text{ kN} \quad (18)$$

ρ_t –tuproq zinchligi, kg/m^3 (Ilova-P.3.)

F_3 –ko'tarish kerak bo'lgan tuproqning ishqalanish qarshiligi. kN

$$F_3 = F_2 \cdot f_m \cdot \cos \varphi, \text{ kN} \quad (19)$$

f_m –tuproqni metall bilan ishqalanish koeffitsienti.(Ilova-P.3.)

φ -plug pastki qismining gorizontga nisbatan og‘ish burchagi. ($\varphi=30\dots35^\circ$).

F_4 –tuproqning yon tomonga siljishidagi ishqalanish qarshilik kuchi. kN

$$F_4 = F_3 \cdot f_t \cdot \operatorname{tg} \frac{\beta}{2}, \text{ kN} \quad (20)$$

f_t –tuproqni tuproq bilan ishqalanish koeffitsienti.(Ilova-P.3.)

β -ag‘dargichning plandagi qazish pichoqlari orasidagi burchak.grad ($\beta=40^\circ\dots60^\circ$)


F_5 –damba yuqori qismining tekislashga ketgan qarshilik. kN.

$$F_5 = 2 \cdot b_d \cdot S \cdot K_{k.}^1 \cdot 10^3 \cdot \text{kN} \quad (21)$$

b_d –damba yuqori qismining eni.m

S – kesish qalinligi, m

$K_{k.}^1$ –maydalangan tuproqning solishtirma qarshiligi, MPa,



2-chizma.Osma plugli kanal qazgichga ta’sir qiluvchi kuchlar.

1-traktor; 2-gidrotsilindr; 3-ishchi jihozini; 4-tayanch chang‘isi; 5-ishchi jihozining ramasi.

$$F_{ish} = \Sigma R_g, kN \quad (22)$$

$$F_u = \frac{x \cdot (m_m + m_{uu}) g_{io}}{3600 \cdot t_T}, kN \quad (23)$$

bu yerda: x –jism massalarining aylanishidagi inersiyasini hisobga oluvchi koeffitsient. $x = 1,1 \dots 1,3$

t_T –jismlarning tezlanish olish vaqt. $t_T = 3 \dots 4$ s.

Agar ishchi jihozzi traktorga tirkama o‘rnatilsa quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$F_T^{yu} = (m_T \cdot g + F_{tv})(f_m \pm i) + (R_1^T + R_2^T) \cdot (f_m \pm i); kH. \quad (24)$$

bu yerda: F_{tv} –tirkama ish jihozini traktorga o‘rnatilgan qismida hosil bo‘ladigan kuchning vertikal tashkil etuvchisii, kN (bu kuch 3-chizmadan $\sum Z=0$ shart orqali aniqlanadi).

R_1^T –tirkama ish jihozining oldingi g‘ildiragiga tuproqni normal ta’sir kuchi, kN (bu kuch 3-chizma $\sum M_A=0$ shart orqali aniqlanadi).

R_2^T –tirkama ish jihozining orqa chang‘i yoki g‘ildiragiga tuproqni normal ta’sir kuchi, kN. (bu kuch 3-chizma yordamida $\sum M_2=0$ shart orqali aniqlanadi).

$$F_{tv} = \Sigma R_v - R_1^T - R_2^T + (m_{ish} + m_{ram}) \cdot g, kN \quad (25)$$

bu yerda: m_{ish} –ish jihozining massasi. $T \cdot m_{ish} = (1,5 \dots 2,3) \cdot A; t$


m_{ram} –tortish ramasining massasi. $T \cdot m_{ram} = (0,6 \dots 0,9) \cdot A; t$

$$\Sigma M_A = O \quad R_1^T = \frac{\Sigma R_B (x_B + x_e) - \Sigma R_\Gamma (Z_\Gamma + Z_m) + m_{uuu} \cdot g (x_e + x_{uuu}) + m_{pam} (x_r + x_p)}{X_\Gamma + X_{1\pi} + f_{\pi}^1 \cdot Z_\Gamma}; kN \quad (26)$$

$$\Sigma M_c = 0 \quad R_2^T = \frac{\Sigma R_B \cdot x_B - \Sigma R_\Gamma (Z_\Gamma + Z_m) + m_{pam} \cdot g \cdot x_P}{x_2 + f_m^1 \cdot (h + Z_T)}; kN \quad (27)$$

Tirkama kanal qazgich mashinasi ishchi jihoziga ta’sir etuvchi kuch quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$F_{ish} = \Sigma R_r + f_m^{-1} (R_1^T + R_2^T); kN \quad (28)$$



3-chizma. Tirkama plugli kanal qazgichga ta'sir qiluvchi kuchlar.

1-traktor; 2-ishchi jihozining ramasi; 3-ishchi jihozini ko'tarib tushiradigan gidrotsilindr; 4-oldingi g'ildirak; 5-ishchi jihozini buradigan gidrotsilindr; 6-ish jahozi; 7-tayanch chang'isi.

Mashina dvigateliga tushadigan quvvat: kVt:

$$R_{dv} = \frac{\sum F \cdot V_{yu} \cdot K_e}{\eta_{ym}}, kBm \quad (29)$$

bu yerda: V_{yu} - mashinaning yurish tezligi; m/s

$$V_{yu} = \frac{\Pi_T}{3600 \cdot A}, \text{m/s} \quad (30)$$

K_e - extiyotlik koeffitsienti, $K_e = 1,2 \dots 1,4$

(η_{um} -yuritmaning F.I.K. ($\eta_{um} = 0,86$)).

Amalyish №3

Mavzu: IKKI ROTORLI KANAL QAZGICH MASHINASINI HISOBLASH (2 soat).

Ishning maqsadi: Ikki rotorli kanal qazgich mashinasining umumiy tuzilishi, ishlash asoslari va hisoblash usullarini o'rganish.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Ikki rotorli kanal qazgich mashinalari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar bilan tanishing.
2. Ikki rotorli kanal qazgich mashinalarining sinfi, konstruktiv tuzilishi va ishlash jarayonini o'rganing. YUtuq va kamchiliklarini aniqlang.
3. Berilgan boshlang'ich ko'rsatkichlar asosida ikki rotorli kanal qazgich mashinasini umumiy hisobini bajaring.
4. Xulosa va texnik takliflar.

Hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar

4-jadval.

№	Ko'rsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1	Grunt toifasi	I	II	I	II	II	I	II	I	II	I
2	Kanal chuqurligi, h_k , m	1,0	1,1	1,2	1,1	0,9	0,8	1,2	1,1	1,0	1,3
3	Kanal tubini eni, b_k , m	1,5	0,4	0,8	1,0	0,9	1,3	1,5	1,4	1,2	0,4
4	Nishablik koeffitsienti. m	1:1	1:1,5	1:1	1:1,2	1:1,3	1:2	1:1,5	1:1	1:1,2	1:1,5
5	Rotordagi tishlar soni. z, sht.	10	11	12	11	12	10	11	12	12	11

Har bir rotor yordamida qazib chiqariladigan yuzaning ko'ndalang kesimi quyidagi formula yordamida aniqlanadi::

$$A_1 = \frac{K_m \cdot A}{2}, \text{m}^2 \quad (31)$$

bu yerda: K_m - tuproqning maydalanish koeffitsienti. (Ilova P.3.).

A-kanal ko'ndalang kesimining yuzasi. m^2 . $A = (b_k + mh_k) h_k : \text{m}^2$

Rotor diametri

$$d_r = (2,9 \dots 3,0) \cdot h_k, \text{m} \quad (32)$$

Rotoring tishlari o'rnatilgan qismining diametri

$$D_o = (0,7 \dots 0,8) \cdot d_r, \text{m} \quad (33)$$

rotorning eni: $b_r=0,2\dots0,3$ m.

Rotoring aylanish tezligi:

$$v_p = \sqrt{x \cdot R_p \cdot g}, \text{ m/s} \quad (34)$$

bu yerda: x – tish koeffitsienti ($x=0,4\dots0,5$)

R_r – rotorradiusi, m

$g = 9,81 \text{ m/s}^2$

Rotoring burchak tezligi:

$$W_r = \frac{V_p}{R_p}, \text{ s}^{-1} \quad (35)$$

Rotorlarning texnik ish unumдорligi:

$$P_t = 30 \cdot \pi \cdot (d_r^2 - d_o^2) \cdot b_r \cdot n_r \cdot K_t, \text{ m}^2/\text{soat} \quad (36)$$

bu yerda: n_r – rotoring aylanishlar soni, ayl/ min.

$$n_r = \frac{30 \cdot W_p}{\pi}, \text{ ayl/min} \quad (37)$$

K_t – rotor tishlari orasini tuproqqa to‘ldirish koeffitsienti. ($K_t=0,2\dots0,25$)

Ish jihozlarini yuritish uchun sarflanadigan quvvat. kVt .

$$P_r = \frac{P_k + P_{ky} + P_{uu}}{\eta_p \cdot \eta_{io}}, \text{ kVt} \quad (38)$$

bu yerda: P_k – tuproqni qazish uchun sarflanadigan quvvat, kVt

P_{ky} – qazilgan tuproqni ko‘tarishga sarflanadigan quvvat, kVt

P_{uu} – qazilgan tuproqning kanal devorlarida ishqalanishga sarflanadigan quvvat. kVt

η_r – rotoring F.I.K. ($\eta_r=0,88$)

η_{yu} – yuritmaning F.I.K. ($\eta_{yu}=0,80$)

$$P_k = 0,28 \cdot P_t \cdot K_k \cdot \left(y' + \frac{y''}{2} \right), \text{ kVt} \quad (39)$$

bu yerda: P_t – rotorlarning ish unumдорligi, m^3/soat

K_k – tuproqning solishtirma qazish qarshiligi, Mpa. (Ilova P.2.)

y' va y'' – rotorlar yordamida kesilgan yuzaning, kanal ko‘ndalang kesimining yuzasiga nisbati.

$$y' = \frac{2 \cdot A_p}{A} \quad y'' = 1 - y' \quad (40)$$

bu yerda: A_r —rotor tishlari bilan kesiladigan tuproqning ko‘ndalang kesimining yuzasi, m^2

$$A_r \approx b_r \frac{h_\kappa}{\sin \beta}, m^2 \quad (41)$$

β - rotoring aylanish tekisligi bilan gorizont orasidagi burchak, grad ($\beta = 30\dots 75^\circ$)

$$P_{ky} = \frac{P_t \cdot \gamma_\Gamma \cdot h_{ky}}{3,6 \cdot 10^6}, \kappa B m \quad (42)$$

bu yerda: γ_g —tuproqning solishtirma og‘irligi, N/m^3 (Ilova P.3)

h_{ky} = tuproqni rotor bilan ko‘tarish balandligi, m

$$h_{ko} = \frac{h}{2} + (0,28\dots 0,35) d_r, m \quad (43)$$

$$P_{uu} = \frac{P_t \cdot \gamma_\Gamma \cdot l_{np} \cdot f_m}{3,6 \cdot 10^6}, \kappa B m \quad (44)$$

bu yerda: l_{pr} —ish jihozining tuproq bilan tishlashish uzunligi, m

$$l_{pr} = (1,2\dots 1,3) \cdot (b_k + \frac{2h}{\sin \beta}), m \quad (45)$$

Ish jarayonida kanal qazgichning yurishiga qarshi kuchlarning yig‘indisi. kN.

$$\sum F = F_{yu} + F_{ish} + F_i + 2F_q, \quad kN \quad (46)$$

bu yerda: F_{yu} —kanal qazgichning yurishiga ko‘rsatadigan qarshilik kuchi. kN

F_{ish} —ish jihozining qarshilik kuchi. kN.

F_i —inersii kuchining qarshiligi, kN

F_q —kanal qirg‘og‘i xosil qilgichning qarshilik kuchi, kN

$$F_{yu} = (R_1 + R_2) \cdot (f_m \pm i), \quad kN \quad (47)$$

bu yerda: R_1 —traktorni yurish uskunasiga tuproqning normal qarshilik kuchi, kn. (bu kuch 4- chizma yordamida $\sum Z = 0$. shart orqali aniqlanadi.).

R_2 —ish jihoziga yordamchi chang‘i yoki g‘ildirak tayanchining tuproqqa beradigan normal ta’sir kuchi, kn. (bu kuch 4-chizma yordamida $\sum M_n = 0$. shart orqali aniqlanadi.).

$$\sum Z = 0: \quad R_1 = (m_t + m_{ish}) \cdot g + \sum R_v + R_{ov} - R_2; \quad kN \quad (48)$$

$$\sum M_A = 0 \quad R_2 = \frac{\Sigma R_B(x_B - x_A) - \Sigma R_e(Z_e + Z_A) + m_{uu} \cdot g(x_{p.o.} - x_B) - R_{or}(Z_{or} + Z_A) + R_{ob}(x_{ob} - x_A)}{x_2 + f_m^{-1}(h_k + Z_A)} \quad (49)$$

bu yerda: $\sum R_v$ – urinma va normal qazishga ta'sir qiluvchi kuchlarning vertikal o'qdagi proeksiyasi. kN

$$\sum R_v = \sum R_u \sin \varphi - \sum R_n \cos \varphi, \quad kN \quad (50)$$

$$\sum R_u = \text{tuproqni qazishdagi urinma kuch. kN} \quad \sum R_u = \frac{P_p}{V_p}, \quad kN \quad (51)$$

$$\sum R_n = \text{tuproqni qazishdagi normal kuch. kN. } \sum R_n = (0,2 \dots 0,5) \cdot \sum R_u, \quad kN \quad (52)$$

φ -rotorning vertikal o'qi bilan qazish kuchi qo'yilgan radius vektori orasidagi burchak; grad ($\varphi = 45^\circ \dots 50^\circ$)

$\sum R_r$ – urinma va normal kuchlarning gorizontal o'qdagi proeksiyasi; kN

$$\sum R_r = \sum R_u \cos \varphi + \sum R_n \sin \varphi; \quad kN \quad (53)$$

bu yerda: R_{og} R_{ov} – passiv ish jihoziga ta'sir qiluvchi kuchning gorizontal va vertikal tashkil etuvchisi. kN

$$R_{or} = (0,35 \dots 0,40) \cdot \frac{K_\kappa \cdot b_\kappa^2 \cdot \operatorname{ctg} \beta}{4 \cdot 10^3}; \quad k \quad (54)$$


$$R_{ov} = R_{og} \cdot \operatorname{ctg} \alpha; \quad kN \quad (55)$$

β -otkos nishabining gorizontga nisbatan og'ish burchagi; grad ($\beta = 30^\circ \dots 45^\circ$)

α -tuproqni kesish burchagi; grad ($\alpha = 30^\circ \dots 50^\circ$)

m_t – traktor massasi; t

m_{ish} – ish jihozining massasi; t



4-chizma. Ikki rotorli kanal qazgichga ta'sir etuvchi kuchlar.

1-traktor; 2-faol ish johozi; 3-passiv ish johozi; 4-orqa tayanch chang'isi.

$$F_{ish.} = \sum R_r + R_{og}, \text{ kN} \quad (56)$$

$$F_i = x(m_t + m_{ish.}) \cdot V \cdot t_t^{-1}, \text{ kN} \quad (57)$$

$$\text{bu yerda: } V - \text{mashinaning yurish tezligi. m/s } V_{yu} = \frac{\Pi_T}{3600 A}; \text{ m/s} \quad (58)$$

t_t —tezlanish olish vaqt; s. ($t_t=3\ldots4$ s) x -o'tish koeffitsienti. ($x=0,4\ldots0,5$).

$$F_k = V_t \cdot \rho_T \cdot g (f_T \sin \gamma + f \cdot \cos \gamma + f_M \cdot \cos^2 \alpha \cdot \sin \gamma) + K_k l_k \cdot h_t \cdot \sin \gamma; \text{ kN} \quad (59)$$

bu yerda: V_t —qirg'oq hosil qilgichning oldidagi tuproq hajmi; m^3

$$V_t = \frac{l_k \cdot h_k^2}{2k_a}; \text{ m}^3 \quad (60)$$

l_q va h_q — qirg'oq xosil qilgichning uzunligi va balandligi. m

K_a —ag'dargich formasining murakkablik koeffitsienti. ($K_a=0,7\ldots1,5$)

α -tuproqni qirqish burchagi, grad. grad ($\alpha=30^\circ\ldots60^\circ$)

γ - ag'dargichni qamrab olish burchagi, grad ($\gamma=45^\circ\ldots60^\circ$)

h_t -tuproqni qazish qalnligi, m. ($h_t=0\ldots0,5$ m)

Ikki rotorli kanal qazgich mashinasining yurishiga ketgan quvvat. kVt.

$$R_{yu} = \frac{\sum F \cdot V_{io}}{\eta_{io}}, \text{ kVt} \quad (61)$$

bu yerda: V_{yu} —kanal qazgichning yurish tezligi, m/s

η_{yu} —yuritmaning F.I.K. ($\eta_{yu}=0,86$)

Kanal qazgichning dvigateliga tushadigan quvvat. kVt.

$$R_{dv} = (1,05 \dots 1,07) \cdot (R_r + R_{yu}), \text{ kVt} \quad (62)$$

Amaliy ish №4.

Mavzu: IKKI FREZALI KANAL QAZGICH MASHINASINI HISOBLASH. (2 soat).

Ishning maqsadi: Ikki frezali kanal qazgich mashinasini tuzilishi ishlash jarayoni va hisoblash usullarini o‘rganish.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Ikki frezali kanal qazgich mashinalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishing.
2. Mashinaning ishlash jarayoni, konstruktiv tuzilishi, qo‘llash sohalari, yutuq va kamchiliklarini o‘rganing.
3. Berilgan boshlang‘ich qiymatlar asosida mashinani umumiy hisobini bajaring va hisob chizmasini keltiring.
4. Xulosa va takliflar.

Hisoblash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar

5-Jadval

№	Ko‘rsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
	Grunt toifasi	I	II	I	II	I	II	I	I	II	II
2	Kanal chuqurligi h_k , m	0,5	0,6	0,7	0,8	0,6	0,5	0,8	0,7	0,5	0,8
3	Kanal tubini eni, b_k , m	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8
4	Nishablik koeffitsienti.m	1:2	1:1	1:1,5	1:1	1:2	1:1,5	1:1	1:2	1:1,5	1:2
5	Traktormassasi, m _t , t.	14	7,6	6,9	14,9	6,0	27,5	20,0	14,0	7,6	27,5

Frezaning diametrid_f=(1,0…2,0) h, m

bu yerda: h_k -kanal chuqurligi, m

Freza kuraklari o‘rnatilgan qismining diametri; $d_o=(0,6 \dots 0,8) \cdot d_f$, m

Frezaning eni; $b_f=0,15 \dots 0,20$ m,

Frezaning aylanish tezligi; m/s

$$g_{\phi} = \sqrt{(30 \dots 32) R_{\phi}} ; \text{ m/s} \quad (63)$$

bu yerda: R_f —frezani radiusi, m agar kanalning nishabligi 1:1,5 nisbatda bo‘lsa;

$$g_\phi = \sqrt{(70.....72)R_\phi} ; \text{ m/s} \quad (64)$$

$$\text{Frezaning burchak tezligi: } W_f = \frac{g_\phi}{R_\phi}, \text{ s}^{-1} \quad (65)$$

Frezalarning texnik ish unumdarligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P_t = 30 \cdot \pi \cdot (d_f^2 - d_0^2) \cdot b_f \cdot n_f \cdot K_n; \text{ m}^3/\text{soat} \quad (66)$$

bu yerda: n_f —frezaning aylanishlar soni, ayl/min $n_f=60 \cdot W_f$; ayl/min.

K_n —freza kuraklarini tuproqqa to‘lish koeffitsienti. ($K_n=0,07\dots0,12$)

Ish jihozlarini yuritish uchun sarflanadigan quvvat.

$$P_\phi = \frac{P_k + P_{om} + P_m + P_{\kappa\bar{y}} + P_{km} + P_{xk}}{\eta_{ym}}; \text{ kVt} \quad (67)$$

bu yerda: P_k —tuproqni qazishga sarflanadigan quvvat; kVt

P_{om} —tuproqni otishga ketadigan quvvat; kVt

P_m —tuproqni tuproq bilan ishqalanishidagi quvvat; kVt

$P_{\kappa\bar{y}}$ —tuproqni ko‘tarishga sarflanadigan quvvat; kVt

P_{km} —freza kuraklari bilan tuproqni tirmashga sarflanadigan quvvat; kVt

P_{xk} —frezalar yordamida havoni qarshiligin engishiga sarflanadigan quvvat; kVt

η_{um} —yuritmaning umumiy F.I.K. ($\eta_{um}=0,86$).

$$P_k = 0,28 \cdot P_t \cdot K_k \cdot y^1; \text{ kVt} \quad (68)$$

bu yerda: y^1 —frezalar yordamida kesilgan yuzani kanal ko‘ndalang kesim yuzasiga nisbati.

$u^1 = \frac{2A_\phi}{A}; \text{ m}^2$; bu yerda: A_f —kanalning frezalar yordamida kesilgan qismining

$$\text{yuzasi. } \text{m}^2 A_f \approx b_f \frac{h}{\sin \beta}, \text{ m}^2$$

A-loyihadagi kanalning ko‘ndalang kesim yuzasi; m^2 : $A = (b_k + mh_k) h_k$

K_k —tuproqning solishtirma qazish qarshiligi; MPa (Ilova P.2.)

$$P_{ot} = \frac{P_t \cdot \rho_T \cdot g^2 \phi}{2 \cdot 3,6 \cdot 10^6}; \text{ kVt} \quad (69)$$

bu yerda: ρ_t —tuproqning zinchligi; kg/m³ (Ilova P.3.)

$$P_t = P_{ot} \cdot f_t \cdot (0,8 + 0,94 \cdot y^1); \text{ kVt} \quad (70)$$

bu yerda: f_t —tuproqni tuproq bilan ishqalanish koeffitsienti. (Ilova P.3.)

$$P_{ky} = \frac{P_t \cdot \gamma_T \cdot h_k}{3,6 \cdot 10^6}; \text{ kVt} \quad (71)$$

bu yerda: γ_t —tuproqni solishtirma og‘irligi, n/m^3 (Ilova P.3.)

h_k —tuproqni qirqib ko‘tarish balandligi; m

$$h_k = \frac{h_k}{2} + (0,28 \dots 0,35) \cdot d_f; \text{ m} \quad (72)$$

$$P_{kt} = 0,14 \cdot P_t \cdot K_k \cdot (1 - y^1); \text{ kVt} \quad (73)$$

$$P_{xk} = \frac{\rho_x \cdot b_k \cdot R_\phi \cdot g^2 \cdot z}{1000}; \text{ kVt} \quad (74)$$

bu yerda: ρ_x —xavoning + 20°S dagi zichligik g/m^3

b_k —kurakning eni; m

z —kuraklarning soni, dona.

Ish jarayonida kanal qazgichning yurishiga qarshi kuchlarning yig‘indisi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:


$$\sum F = F_{yu} + F_{ish} + F_{in} + 2F_b; \text{ kN} \quad (75)$$

bu yerda: F_{yu} — mashinani harakatlanishida ko‘rsatiladigan qarshilik kuchi, kN

F_{ish} —ishchi jihoziga ko‘satiladigan qarshilik kuchi, kN

F_{in} — inersiya qarshilik kuchi, kN

F_b — qirg‘oq xosil qilgichga ta’sir etuvchi qarshilik kuchi.kn



5-chizma. Ikki frezali kanal qazgich mashinasiga ta'sir etuvchi kuchlar.

1-traktor; 2-faol ishchi jihizi; 3-passiv ish jihizi; 4-tayanch chang'isi.

$$F_{yu} = (R_1 + R_2) \cdot (f_m \pm i), \text{ kN} \quad (76)$$

bu yerda: R_1 —traktorni yurish uskunasiga tuproqning normal qarshilik kuchi, kN
(bu kuch 5- chizmadan $\sum Z = 0$ shart orqali aniqlanadi.).

R_2 - ish jihoziga yordamchi chang'i yoki g'ildirak tayanchining tuproqqa beradigan normal ta'sir kuchi, kN.(Bu kuch 5-chizmadan $\sum M_A = 0$. shart orqali aniqlanadi).

$$\sum Z = 0: \quad R_1 = (m_t + m_{ish}) \cdot g + \sum R_v + R_{ov} - R_2; \quad \text{kN} \quad (77)$$

$$\sum M_n = 0 \quad R_2 = \frac{\sum R_B(x_B - x_A) - \sum R_T(Z_T + Z_A) + m_{uu} \cdot g(x_{uu} - x_B) - R_{or}(Z_{or} + Z_A) + R_{ob}(x_{ob} - x_A)}{x_2 + f_m^{-1}(h + Z)} \quad (78)$$

bu yerda: $\sum R_v$ —urinma va normal qazishga ta'sir qiluvchi kuchlarning vertikal o'qdagi proeksiyasi. kN

$$\sum R_v = \sum R_u \sin \varphi - \sum R_n \cos \varphi, \quad \text{kN} \quad (79)$$

$$\sum R_u = \text{tuproqni qazishdagi urinma kuch}, \text{ kN} \quad \sum R_u = \frac{P_\phi}{V_\phi}, \text{ kN} \quad (80)$$

$$\sum R_n = \text{tuproqni qazishdagi normal kuch}, \text{ kN}. \quad \sum R_n = (0,2 \dots 0,5) \cdot \sum R_u, \text{ kN} \quad (81)$$

φ -frezaning vertikal o‘qi bilan qazish kuchi qo‘yilgan radius vektori orasidagi burchak; grad ($\varphi=45^0\dots50^0$)

ΣR_g -urinma va normalga ajratilgan kuchlarning gorizontal o‘qdagi proaksiyasi; kN

$$\Sigma R_g = \Sigma R_u \cos \varphi + \Sigma R_n \sin \varphi ; \text{ kN} \quad (82)$$

bu yerda: R_{og} R_{ov} -passiv ish jihoziga ta’sir qiluvchi kuchning gorizontal va vertikal tashkil etuvchisi. kN

$$R_{or} = (0,35\dots0,40) \cdot \frac{K_k \cdot b_k^2 \cdot ctg\beta}{4 \cdot 10^3} ; \text{ kN} \quad (83)$$

$$R_{ov} = R_{og} \cdot ctg \alpha ; \text{ kn.} \quad (84)$$

K_k -tuproqni qazishdagi solishtirma qarshilik. Mpa.(Ilova P.2.)

β -nishablikni gorizontga nisbatan og‘ish burchagi; grad ($\beta=30^0\dots45^0$)

α -tuproqni kesish burchagi; grad ($\alpha=30^0\dots50^0$)

m_t - traktorni massasi. t

m_{ish} -ishchi jihozini massasi; t

$$F_{ish} = \Sigma R_r + R_{og} , \text{ kN} \quad (85)$$

$$F_{in} = x \cdot (m_t + m_{ish}) \cdot V_{yu} \cdot t_{tez}^{-1} , \text{ kN} \quad (86)$$

$$\text{bu yerda: } V_{yu} - \text{mashinaning yurish tezligi, m/s} \quad V_{yu} = \frac{\Pi_r}{3600A} ; \text{ m/s} \quad (87)$$

t_{tez} -jismlarning tezlanish olish vaqt; s. ($t_{tez}=3\dots4$ s) x- o‘tish koefitsienti ($x=0,4\dots0,5$).

$$F_6 = V_T \cdot \rho_f \cdot g (f_r \sin \gamma + f_c \cdot \cos \gamma + f_c \cdot \cos^2 \alpha \cdot \sin \gamma) + K_6 l_6 \cdot h_T \cdot \sin \gamma ; \text{ kN} \quad (88)$$

bu yerda: V_T -qirg‘oq xosil qilgichning oldidagi tuproq xajmi; m^3

$$V_t = \frac{l_6 \cdot h_6^2}{2k_6} ; \text{ m}^3 \quad (89)$$

l_b i h_b – qirg‘oq xosil qilgichning uzunligi va balandligi. m

K_b -ag‘dargich formasining murakkablik koefitsienti. ($K_b=0,7\dots1,5$)

α - tuproqni qirqish burchagi, grad ($\alpha=30^0\dots60^0$)

γ -ag‘dargichni qamrab olish burchagi, grad ($\gamma=45^0\dots60^0$)

h_t -tuproqni qazish qalinligi, m ($h_t=0\dots0,5$ m)

Ikki frezali kanal qazgich mashinasining ish paytida yurishi uchun kerak bo‘ladigan quvvat quyidagi formula bilan aniqlanadi: kVt.

$$P_{io} = \frac{\vartheta_{io} [\sum F + F_m (f_C \cos \alpha + \sin \alpha)]}{\eta_{io}} ; \text{ kVt} \quad (90)$$

bu yerda: ϑ_{yu} —mashinaning yurish tezligi; m/s

$$\vartheta_{io} = \frac{\Pi_T}{3600 \cdot A} ; \text{ m/s} \quad (91)$$

bu yerda: P_t —mashinaning texnik ish unumдорлиги: m^3/soat

α -mashinaning yurish jarayonida gorizontga nisbatan og‘ish burchagi; grad ($\alpha=0^0$)

η_{yu} —yuritmaning F.I.K. ($\eta_{yu}=0,8$)

F_m -mashinaning yurish uskunasiga tushadigan kuch. kN.

$$F_m = mg + R_{ish.} \text{ kN.} \quad (92)$$

bu yerda: m -mashinaning massasi.t.

R_{ish} -ish jihozini tuproqqa beradigan ta’sir kuchi. kN.

$$R_{ish} = R_{ish}^e \cdot K^2 \text{ kN.} \quad (93)$$

$$R_{ish}^e = 1,0 \dots 2,3 \text{ kN.} \quad (94)$$

K- mashinaning geometrik o‘lchamlari o‘xshashlik nisbati:

$$K = \frac{d_f^\pi \phi}{d_\phi^\vartheta} \quad K = \frac{B_f^\pi \phi}{B_\phi^\vartheta} \quad (95)$$

bu yerda: d_f^1 va V_f^1 -loyihalanadigan mashina frezasining diametri va eni; m.

d_f^e va V_f^e - etalon mashina frezasining diametri va eni. m

Yordamchi mexanizmlarga sarf etiladigan quvvat. kVt.

$$R_{yor.} = 0,05 \cdot (R_f + R_{yu}) , \text{ kVt} \quad (96)$$

Umumiyl talab etiladigan quvvat. kVt.

$$R_{dv} = R_f + R_{yu} + R_{yor} ; \text{ kVt} \quad (97)$$

Amaliy ish № 5.

Mavzu: SHNEK-ROTORLI KANAL QAZGICH MASHINASINI HISOBBLASH. (4 soat).

Ishning maqsadi: Shnek-rotorli kanal qazgich mashinasini umumiy tuzilishi, ishlash asoslari qo'llash sohalarini va hisoblash asoslarini o'rganish.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Kombinatsiyalashgan ishchi jihozlariga ega bo'lgan kanal qazgich mashinalari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar bilan tanishing.
2. Shnek-rotorli kanal qazgich mashinasining konstruktiv tuzilishi va ishlash jarayonini o'rganing. Yutuq va kamchiliklarini aniqlang.
3. Berilgan variantlar asosida mashinani umumiy hisobini amalga oshiring.
4. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan texnik takliflaringizni yozing.

Hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar

6-jadval.

№	Ko'rsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1	Tuproq toifasi	I	II	I	II	I	I	II	I	I	II
2	Rotor cho'michlarini sig'imi, q, 1	90	180	190	100	150	140	130	95	89	145
3	Kanal chuqurligi, m. h _k	2,0	2,5	3,0	1,8	3,1	2,9	3,0	2,0	2,9	1,9
4	Kanal tubining eni, m. b _k	0,6	0,9	1,0	2,0	2,5	2,3	1,9	2,0	2,5	2,3
5	Rotordagi cho'michlar soni, n _{ch} dona	7	16	8	15	9	14	10	13	11	16
6	Nishablik koeffitsienti, m	1:1	1:1,7	1:1,3	1:1,5	1:1	1:1,2	1:1,3	1:1,5	1:1,2	1:1

Kanal ko'ndalang kesim yuzasi quyidagi formula bilan aniqlanadi: $A = (b_k + m h_k) h_k : m^2$

Shnekli va rotorli ish jihozlarining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash.

$$\text{Rotor diametri} \quad d_R = (1,75 \dots 1,85) \cdot h_k; \text{ m} \quad (98)$$

bu yerda: h_k—kanal chuqurligi; m


$$\text{Rotoring aylanish tezligi.} \quad \vartheta_r = (0,35 \dots 0,42) \cdot \sqrt{gd_p}; \text{ m/s} \quad (99)$$

Shnekning kanal tubidagi diametri. d_{sh}=1,0...1,44 m.yarim tirkamalar uchun; d_{sh}=1,15 m. tirkamalari uchun;

$$\text{Shnekning aylanish tezligi.} \quad \vartheta_{sh} = 1,5 \dots 3 \text{ m/s} \quad (100)$$

$$\text{Shnekning uzunligi:} \quad l_{sh} = \frac{h}{\sin \beta} + (0,1 \dots 0,2), \text{ m} \quad (101)$$

bu yerda: β —otkosning gorizontga nisbatan og'ish burchagi: grad ($\beta = 30 \dots 75^\circ$)



6-chizma. Shnek-rotorli kanal qazgich mashinasining ishchi jihozlari yordamida qazilgan kanal qismining ko'ndalang kesim yuzasini aniqlash uchun hisoblash sxemasi.

Mashinaning texnik ish unumdorligini aniqlashda asosan rotoring ish unumdorligini aniqlash kifoyadir chunki shneklar orqali qazilgan tuproq ham rotor yordamida chiqariladi.

$$\Pi_{\text{t}}^p = \frac{60 \cdot q \cdot n_z K_e \cdot K_m}{1000 \cdot K_{io}} ; \text{ m}^3/\text{soat} \quad (102)$$

bu yerda: q -rotordagi cho'michlarning sig'imi ; litrda.

n_z – bir minutda to'kilgan cho'michlarning soni. to'k/min.(mashinaning texnik ta'rifidan qabul qilinadi).

K_v —cho'michning hajmdan foydalanish koeffitsienti; ($K_v=0,85\dots1,05$)

K_m -mashinaning qiyin sharoitlarda ishlashini hisobga oluvchi koeffitsient; ($K_m = 0,7\dots1,0$)

K_{io} -tuproqni yumshatish koeffitsienti: (Ilova P.3.1.)

Shneklerning texnik ish unumdorligi:

$$\Pi_{\text{t}}^w = 2 \frac{3600 \cdot A_{sh} \cdot \vartheta_{io}}{K_{io}} ; \text{ m}^3/\text{soat} \quad (103)$$

bu yerda: A_{sh} —kanal ko'ndalang kesim yuzasini shneklar qazgan qismining yuzasi: m^2 , $A_{sh} = A_{avs} - A_{dve}$; m^2 . (6-chizma)

ϑ_{yu} —mashinaning yurish tezligi; m/s .

(ETR-301. uchun $\vartheta_{yu}=0,005\dots0,123$ km/soat., ETR-201B. uchun $\vartheta_{yu}=0,019\dots0,193$ km/soat., KFN-120A. uchun $\vartheta_{yu}=0,033\dots0,27$ km/soat MK-17., uchun $\vartheta_{yu}=0,32\dots0,94$ km/soat.). Rotorni harakatga keltirish uchun sarflanadigan quvvat: kVt .

$$P_p = \frac{P_k + P_{\kappa\bar{y}} + P_{\text{tok}}}{\eta_{yM}}; \text{ kVt} \quad (104)$$

bu yerda: P_k —tuproqni qazishga sarflanadigan quvvat; kVt

$P_{\kappa\bar{y}}$ —qazilgan tuproqni ko‘tarishga sarflangan quvvat, kVt

P_{tok} —tuproqni yuklashga sarflanadigan quvvat; kVt

η_{yM} —yuritmaning F.I.K. ($\eta_{yM}=0,7\dots0,8$)

$$P_k = 0,28 \cdot P_t^r \cdot K_k \left(y' + \frac{y''}{2} \right); \text{ kVt} \quad (105)$$

bu yerda: P_t^r —rotorning ish unumdorligi; m^3/soat

K_k —tuproqni solishtirma qazish qarshiligi: MPa. (Ilova P.2.)

y' va y'' – rotor va shneklar yordamida qazilgan yuzanining kanal umumiy ko‘ndalang kesim yuzasiga nisbati.

$$y' = \frac{A_p + 2A_u}{A}; \quad y'' = 1 - y' \quad (106)$$

bu yerda: A_r —rotor bilan ishlangan yuzanining ko‘ndalang kesim yuzasi; m^2

$$A_r = h_k \cdot b_{ch}; \quad \text{m}^2, \quad (107)$$

b_{ch} —rotor cho‘michining eni; m. $b_{ch}=1,2\dots1,54$ m.

A_{sh} —shnek bilan ishlanadigan yuzanining ko‘ndalang kesim yuzasi; m^2

A —kanalning ko‘ndalang kesim yuzasi; m^2

$$P_{\kappa\bar{y}} = \frac{\Pi_T \cdot \gamma_T \cdot h_{\kappa\bar{y}}}{3,6 \cdot 10^6}; \text{ kVt} \quad (108)$$

bu yerda: γ_T —tuproqning solishtirma og‘irligi. N/m^3 (Ilova P.3.)

h_{ko} —tuproqni rotor bilan ko‘tarish balandligi; m

$$h_{ko} = (0,8\dots0,9) \cdot d_r, \quad \text{m} \quad (109)$$

$$P_{\text{tok}} = \frac{\Pi_T \cdot \rho_T \cdot g_{T,IO}}{3,6 \cdot 10^6}; \text{ kVt} \quad (110)$$

bu yerda: ρ_T —maydalangan tuproqning zichligi.; kg/m^3 (Ilova P.3.)

$v_{t,yu}$ —tasmali yuklagichning tezligi. m/s. $v_{t,yu}=3,43\dots5,25$ m/s.

Shnekлarni harakatga keltirish uchun sarflanadigan quvvat. kVt..

$$P_{uu} = \frac{P_{uu} + P_t}{\eta_{yu}}; \quad (111)$$

bu yerda: P_{uu} –tuproqni shnek bilan qazishga sarflanadigan quvvat; kVt
 P_t –tuproqni tuproq bilan ishqalanishiga sarflanadigan quvvat; kVt
 η_{yu} –yuritmaning F.I.K. ($\eta_{yu}=0,7\dots0,8$).

$$P_{uu} = 0,28 \cdot P_t^{sh} \cdot K_k \left(y' + \frac{y''}{2} \right); \text{kVt} \quad (112)$$

$$y' = \frac{2A_{uu}}{A}; \quad m^2. \quad y'' = 1 - y' \quad m^2. \quad (113)$$

$$P_t = \frac{\Pi^{III}_T \cdot \gamma_T \cdot l_T \cdot f_T}{3,6 \cdot 10^6}; \text{kVt} \quad (114)$$

P_t^{sh} -shneklarni texnik ish unumdorligi, m^3/soat .

γ_T -tuproqni solishtirma og‘irligi; N/m^3 .

l_T -shnekni tuproq bilan tishlashish uzunligi; m. $l_T=2(0,8\dots0,9)l_{sh}$. m.
 f_T -tuproqni tuproq bilan ishqalanish koeffitsienti.(Ilova P.3.)

Ish jihoziga sarflanadigan quvvat.. kVt

$$P_{uu} = P_r + P_{uu}, \text{kVt} \quad (115)$$

Kanal qazgichning ish jihoziga ta’sir qiladigan qarshilik kuchlarining yig‘indisi. kN..

$$\sum F = F_m + F_{ish}^r + F_{ish}^{sh} + F_i; \text{kN} \quad (116)$$

bu yerda: F_m –mashinaning yurishdagi qarshiligi, kN

F_{ish}^r –rotorli ish jihozining qarshiligi, kN

F_{ish}^{sh} –shnekli ish jihozlarining qarshiligi, kN

F_i –inersiya kuchining qarshiligi., kN

$$F_m = (R_1 + R_2) \cdot (f_m \pm i); \text{kN} \quad (117)$$

bu yerda: f_m –mashinaning yurishdagi qarshilik koefitsienti, (Ilova P.1).

i –yurishdagi qiyalik. $i=0$,

R_1 –yurish uskunasiga tuproqning normal ta’sir kuchi. kN.Bu kuch 5-chizma yordamida $\Sigma=0$. shart orqali aniqlanadi.

R_2 –yordamchi chang‘ilar yoki g‘ildiraklarning tuproqqa beradigan normal ta’sir kuchi.Bu kuch 5-chizma yordamida $\Sigma M_a=0$. shart orqali aniqlanadi.

$$R_i = (m_t + m_{ish}) \cdot g + \sum R_v + R_{ov} - R_2, \text{ kN} \quad (118)$$

bu yerda: m_t —traktormassasi. t

m_{ish} —ish jihozining massasi. t

$\sum R_v$ -urinma va normal qazuvchi kuchlarning vertikal o‘qdagi proeksiyasi. kN..

R_{ov} —passiv ish jihoziga ta’sir kuchning vertikal o‘qdagi tashkil etuvchisi. kN .

$$\sum R_v = R_u \cdot \sin \alpha - \sum R_n \cdot \cos \alpha, \text{ kN.} \quad (119)$$

bu yerda: $\sum R_u$ -tuproqni qazishdagi urima kuch; kN

$\sum R_n$ -tuproqni qazishdagi normal kuch; kN.

α -rotorning vertikal o‘qi bilan $\sum R_u$ radius vektori orasidagi burchak. Grad. $\alpha=45^0$

$$\sum R_u = \frac{P_p}{g_p}; \text{ kN} \quad (120)$$

$$\sum R_H = (0,2 \dots 0,5) \cdot \sum R_u; \text{ kN} \quad (121)$$

$$R_{ov}^r = R_{og}^r \cdot \operatorname{ctg} \alpha; \text{ kN} \quad (122)$$

bu yerda: R_{og}^r —passiv ish jihoziga ta’sir etuvchi kuchning gorizontal tashkil etuvchisi kN

α —passiv ish jihozining kesish burchagi. grad, $\alpha=45^0$

$$R_{og}^r = (0,35 \dots 0,8) \cdot \frac{K_k * b^2 \operatorname{ctg} \beta}{4 * 10^{-3}}, \text{ kN} \quad (123)$$

bu yerda: b-kanal tubini eni. (topshiriq bo‘yicha olinadi), m

K_k -tuproqni qazishdagi solishtirma qarshilik. MPa (Illova P.2.)

β - otkos nishabining gorizontga nisbatan og‘ish burchagi, grad. ($\beta=30^0 \dots 45^0$)

$$F_{ish}^r = \sum R_{\varepsilon}^p + R_{og}^r, \text{ kN} \quad (124)$$

bu yerda: $\sum R_{\varepsilon}^p$ - urinma va normal kuchlarning gorizontal o‘qdagi proeksiyasi ,kN

$$\sum R_{\varepsilon}^p = \sum R_k^p \cdot \cos \alpha + \sum R_H^p \cdot \sin \alpha, \text{ kN} \quad (125)$$

$$F_{ish}^{sh} = \sum R_g^u + R_{og}^{sh}, \text{ kN} \quad (126)$$

$$\sum R_g^u = \sum R_K^u \cdot \sin \alpha + \sum R_H \cdot \cos \alpha, \text{ kN} \quad (127)$$

$$\sum R^u_k = \frac{P_u}{V_{uu}}, \text{ kN} \quad (128)$$

$$\sum R^u_H = (0,2 \dots 0,5) \cdot \sum R^u_k, \text{ kN} \quad (129)$$

$$R^{sh}_{og} = (0,35 \dots 0,5) \cdot \kappa \frac{K_\kappa \cdot (\frac{h}{\sin \beta})^2}{4 \cdot 10^3} \cdot \operatorname{ctg} \beta, \text{ kN} \quad \beta = 30..45^\circ \quad (130)$$

$$F_i = \frac{X \cdot (m_T + m_{uu.}) \cdot V_{io}}{t}, \text{ kN} \quad (131)$$

bu yerda: X-jism massalarining aylanishidan hosil bo'lgan inersiyasini hisobga oluvchi koeffitsient, ($X=1,1..1,3$)

m_t —traktormassasi, t

V_{yu} —mashinaning harakatlanish tezligi , m/s

t—tezlanish olish vaqt. s ($t=3 \dots 4$ s.)

Kanal qazgichni yurishi uchun sarflanadigan quvvat., kVt.

$$P_{yu} = \frac{\sum F \cdot V_{yu}}{\eta_{ym}}; \text{ kVt} \quad (132)$$

bu yerda: V_{yu} —mashinaning harakat tezligi. m/s

$$V_{yu} = \frac{\prod T^P}{3600 \cdot A}; \text{ m/s} \quad (133)$$

η_{um} —yuritmaning F.I.K, ($\eta_{um}=0,1 \dots 0,8$)

Kanal qazigichning dvigateliga tushadigan quvvat, kVt.

$$P_{dv} = (1,05 \dots 1,07) \cdot (P_{yu} + P_{ish.}); \text{ kVt} \quad (134)$$

$$P_{ish.} = P_r + P_{sh}; \text{ kVt.} \quad (135)$$

$$N_{dv} = K_{zax} \cdot P_{dv}; \text{ kVt.} \quad (136)$$

$$K_{zax} = 1,2 \dots 1,4.$$

Amaliy ish № 6.

Mavzu: KO‘P CHO‘MICHLI KANAL TOZALAGICHNI HISOBLASH. (2 soat).

Ishning maqsadi: Ko‘p cho‘michli kanal tozalagich mashinasining konstruktiv tuzilishi, ishlash asoslari va hisoblash usullarini o‘rganish.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Ko‘p cho‘michli kanal tozalagich mashinalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishing.
2. Ko‘p cho‘michli ko‘ndalang qaziydigan ekskavatorlari sinfi, konstruktiv tuzilishi, ishlash jarayonlari, qo‘lanilishi yutuq va kamchiliklarini o‘rganing.
3. Berilgan qiymatlar asosida ko‘p cho‘michli kanal tozalagich mashinasini hisoblang.
4. Xulosa va texnik takliflar bering.

Hisoblash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar

7-Jadval.

№	Ko‘rsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1	Cho‘michning sig‘imi q, 1	16	30	40	29	45	35	40	25	20	32
2	Grunt toifasi	I	II	I	II	II	I	II	I	II	I
3	Kanal chuqurligi.h,m	2,0	1,4	1,9	1,8	1,5	1,7	1,6	2,0	1,9	2,0
4	Kanal tubining eni.b, m.	0,4	0,6	0,8	1,0	0,4	0,6	0,8	1,0	0,9	1,0
5	Vaqt birligi ichida tuproqni to‘kkan cho‘michlar soni, n _z ,to‘k/min.	60	30	40	55	60	35	28	40	50	60
6	Cho‘michni tuproqqa to‘ldirish koeffitsienti.K _t	0,98	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2	1,25	1,2	1,0	0,92

Kanalni tozalash kerak bo‘lgan cho‘kindining ko‘ndalang kesim yuzasi, m².

$$A = A_2 - A_1, \quad m^2 \quad (137)$$

bu yerda: A₂—loyihadagi kanalning ko‘ndalang kesim yuzasi, m²

A₁—tozalash kerak bo‘lgan (cho‘kindi qalinligi bilan) ko‘ndalang kesim yuzasi.m²

$$A_2 = (b + m \cdot h) \cdot h, \quad m^2 \quad (138)$$

bu yerda: b—kanal tubining eni. m

m—kanal otkosining nishabligi.

h—kanalning chuqurligi. m

δ —cho‘kindining qalinligi; m.

$$A_{1=}(b-\delta + m \cdot h - \delta) \cdot h - \delta : m^2 \quad (139)$$

Mashinaning texnik ish unum dorligi; m^3/soat .

$$P_T = 0,06 \cdot q \cdot n_z \cdot \frac{K_T}{K_{IO}}, \quad m^3/\text{soat} \quad (140)$$

bu yerda: q —cho‘michlarning sig‘imi, l

n_z —vaqt birligi ichida to‘kilgan cho‘michlar soni: to‘k/min.

K_t —cho‘michni to‘ldirish koeffitsienti.

K_{yu} —tuproqni maydalanish koeffitsienti.(Ilova P.3.1.)

Mashinaning yurish tezligi. m/s.

$$V_{yu} = \frac{\Pi_T}{3600 A}, \quad \text{m/s} \quad (141)$$

Ish jihozining aylanish tezligi: m/s. $V_{ish.}=0,5\dots1,0$ m/s

Qazish kerak bo‘lgan cho‘kindining qalinligi, m

$$\delta k = \frac{\Pi_T \cdot \sin \alpha}{3600 \cdot V_{io} \cdot h}, \quad \text{m} \quad (142)$$

bu yerda: α -otkos nishabining gorizontga nisbatan og‘ish burchagi, grad ($\alpha=30^0\dots45^0$)

Ish jihoziga sarflanadigan quvvat; kVt.

$$P_{ish} = \frac{P_k + P_{ky} + P_{IOK}}{\eta_{ym}}, \quad \text{kVt} \quad (143)$$

bu yerda: P_k —tuproqni qazishga sarflanadigan quvvat, kVt

P_{ky} —qazilgan tuproqni ko‘tarishga sarflanadigan quvvat, kVt

P_{IOK} —tuproqni ko‘chirishga sarflanadigan quvvat, kVt

η_{ym} —yuritmaning umumiyl F.I.K. ($\eta_{ym}=0,75$)

$$P_k = 0,28 \cdot K_k \cdot P_t, \quad \text{kVt} \quad (144)$$

$$P_{ky} = \frac{\Pi_T \cdot \gamma_T \cdot h_{ky}}{3,6 \cdot 10^6}, \quad \text{kVt} \quad (145)$$

$$P_{\text{t} \cdot \text{o} \cdot \text{k}} = \frac{\Pi_T \cdot \rho_T \cdot V_{T,IO}}{3,6 \cdot 10^6}, \text{ kVt} \quad (146)$$

bu yerda: K_k —tuproqni solishtirma qazish qarshiligi, mPa (Ilova P.2.)

γ_T —tuproqni solishtirma og‘irligi, N/m² (Ilova P.3.)

h_{ko} —tuproqni ko‘tarish balandligi, m $h_{ko}=h+(1,0\dots1,5)$, m
 α -otkos nishabining gorizontga nisbatan og‘ish burchagi, grad ($\alpha=30^0\dots45^0$)

$V_{T,IO}$ —tasmali ko‘chirgichning tezligi, m/s ($V_{T,IO}=3\dots5$ m/s)

P_t —tuproqni zichligi, kg/m³. (Ilova P.3.1.)

Kanal qazgichning ish jarayonida ta’sir qiladigan qarshilik kuchlarining yig‘indisi;

$$\sum F = F_{yu} + F_{ish} + F_i, \text{ kN} \quad (147)$$

bu yerda: F_{yu} —mashinaning yurishidagi qarshilik kuchi, kN

F_{ish} —ish jihozining qarshilik kuchi, kN

F_i —inersiya kuchining qarshiligi, kN

$$F_{yu} = R_1 \cdot (f_m \pm i), \text{ kN} \quad (148)$$

bu yerda: R_1 —mashinaning tuproqqa ko‘rsatadigan normal kuchi, kN (Bu kuch 7-chizma yordamida $\sum Z=0$ shart orqali aniqlanadi).

$$R_1 = (m_t + m_{pos} + m_{ish}) \cdot g - \sum R_v, \text{ kN} \quad (149)$$

bu yerda: m_t ; m_{pos} ; m_{ish} — traktor, posangi va ish jihozining massasi, t

$\sum R_v$ —urinma va normal qazuvchi kuchlarning vertikal o‘qdagi proeksiyasi, kN


$$\sum R_v = \sum R_u \cdot \sin \alpha - \sum R_n \cdot \cos \alpha, \text{ kN} \quad (150)$$

bu yerda: $\sum R_u$ va $\sum R_n$ —qazuvchi kuchning urinma va normal tashkil etuvchisi, kN

$$\sum R_u = \frac{P_{uuu}}{V_{uuu}}, \text{ kN} \quad (151)$$

$$\sum R_n = (0,2\dots0,8) \cdot \sum R_u, \text{ kN} \quad (152)$$

α -otkos nishabining gorizontga nisbatan og‘ish burchagi, grad ($\alpha=30^0\dots45^0$)



7-chizma. Ko‘p cho‘michli kanal tozalagichga ta’sir etuvchi kuchlar.
1-traktor; 2-ish jihozining ramasi; 3-ish jihizi.; 4-posangi.

$$F_{ish} = \sum R_b, \text{ kN} \quad (153)$$

bu yerda: $\sum R_b$ —qazuvchi kuchning bo‘ylama tashkil etuvchisi, kN

$$R_b = 10^3 \frac{h \cdot \delta_\kappa}{Sin \cdot \alpha} \cdot K_\kappa; \text{ kN} \quad (154)$$

$$F_i = x \cdot (m_t + m_{pos} + m_{ish}) \cdot V_{yu} / t_{tez}^{-1}, \text{ kN} \quad (155)$$

bu yerda: t_{tez} —jismlarning tezlanish olish vaqt; s. ($t_{tez}=3\ldots4$ s)

x - o‘tish koefitsienti ($x=0,4\ldots0,5$)

m_{pos} ; m_t ; m_{ish} .—posangi, traktor va ish jihozining massasi, t. ($m_m=8,3\ldots10,0$ t).

Mashinaning yurishi uchun sarflanadigan quvvat. kVt.

$$P_{yu} = \frac{\sum F \cdot V_{io}}{\eta_{yu}}, \text{ kVt} \quad (156)$$

Mashinaning dvigateliga tushadigan quvvat. kVt.

$$P_{dv} = (1,06\ldots1,07) \cdot (P_{ish} + P_{yu}); \text{ kVt} \quad (157)$$

Amaliy ish № 7.

Mavzu: FREZA-SOCHGICHLI KANAL TOZALAGICH MASHINASINI HISOBBLASH. (2 soat).

Ishning maqsadi: Frezali kanal tozalagich mashinalarining umumiy tuzilishi ishlash asoslari va hisoblash usullarini o‘rganish.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Freza-sochgichli kanal tozalagich mashinalari to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar bilan tanishing.
2. Ushbu turdagি mashina va ishchi jihozlarining konstruksiyalari ishlash jarayonlari, qo‘llash sohalari, sinfi yutuq va kamchiliklari bilan tanishib o‘rganing.
3. 8-jadvaldan foydalanib boshlang‘ich ko‘rsatkichlar asosida variant bo‘yicha freza-sochgichli kanal tozalagich mashinasini hisoblang.
4. Ish unumdorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillar va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun mustaqil ravishda o‘z taklif va mulohazalariningizni yozing.

Hisoblash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar.,

8-jadval

№	Ko‘rsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1	Frezaning aylanish tezligi, $V_f, \text{m/s}$	10	12	14	16	18	20	22	25	23	15
2	Grunt toifasi.	I	II	I	II	II	I	II	I	II	I
3	Kanal chuqurligi, h, m	1,2	1,4	1,6	1,8	2,0	2,5	3,0	2,6	2,9	3,0
4	Kanal tubining eni, b, m	0,7	0,6	0,8	1,5	0,9	0,4	0,8	2,0	1,9	1,0
5	Frezaning diametri, m	0,5	0,6	0,8	0,7	0,9	1,0	1,2			0,8
6	Kanal otkosining nishablik koeffitsienti, m	0,5	2,0	1,5	1,0	1,5	1,3	1,4	0,5	0,6	0,9

Tozalash kerak bo‘lgan cho‘kindining ko‘ndalang kesim yuzasi, m^2

$$A = (0,8 \dots 0,9) \cdot \frac{\pi \cdot R_f^2}{2}, \text{ m}^2 \quad (158)$$

bu yerda: R_f — frezaning radiusi, m

Texnik ish unumdorligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi: m^3/soat

$$P_t = 3600 \cdot A \cdot V_m, \text{ m}^3/\text{soat}. \quad (159)$$

Mashinaning yurish tezligi:

$$V_m = \frac{P_t}{3600 \cdot A}, \text{ m/s} \quad (160)$$

Frezali ish jihoziga sarflanadigan quvvat. kVt.

$$P_f = \frac{P_q + P_{ot} + P_t}{\eta_f}; \quad \text{kVt} \quad (161)$$

bu yerda: P_q -tuproqni qazishga sarflanadigan quvvat, kVt

P_{ot} -cho‘kindi tuproqlarni otishga sarflanadigan quvvat, kVt

P_t -tuproqni tuproq va metall bilan ishqalanishiga sarflanadigan quvvat.kVt

η_f -yuritmaning F.I.K. ($\eta_f=0,85$)

$$P_k = 0,28 \cdot K_k \cdot P_t, \text{kVt} \quad (162)$$

$$P_{ot} = \frac{P_t \cdot \rho_T \cdot V_\phi^2}{2 \cdot 3,6 \cdot 10^6}, \text{kVt} \quad (163)$$

$$P_t = \frac{P_t \cdot \gamma_T \cdot f \cdot \omega_\phi^2}{3,6 \cdot 10^6 \cdot g} (0,3....0,5) \cdot (h_2 + \frac{4}{3} \cdot \pi R_f^2), \text{kVt} \quad (164)$$

bu yerda: f -tuproqni metall bilan ishqalanish koeffitsienti.(Ilova P.3.)

ω_f -frezaning burchak tezligi, s^{-1}

$$\omega_f = \frac{V_\phi}{R_\phi}, s^{-1} \quad (165)$$

h_2 -cho‘kindining qalinligi, m

Kanal tozalagichning ish jarayonida ta’sir qiluvchi kuchlarning yig‘indisi. kN..

$$\sum F = F_{yu} + F_{ish} + F_i, \text{kN} \quad (166)$$

bu yerda: F_{yu} -mashinaning yurishdagi qarshiligi, kN

F_{ish} -ish jihozining qarshilik kuchi, kN

F_i -inersii kuchining qarshiligi, kN

$$F_{yu} = R_1 \cdot (f_m \pm i), \text{kN} \quad (167)$$

bu yerda: R_1 -tuproqning yurish uskunasiga ko‘rsatadigan normal kuchi, kN (bu kuch 8-chizma yordamida $\sum Z=0$. shart orqali aniqlanadi).

$$\sum Z=0 \quad R_1=(m_t+m_{pos}+m_{ish.})g - \sum R_v, \text{ kN} \quad (168)$$

$$\sum R_v = \sum R_u \cdot \sin \alpha - \sum R_n \cdot \cos \alpha, \text{ kN} \quad (169)$$

$$\sum R_u = \frac{P_\phi}{V_\phi} \text{ kN. } \sum R_n = (0,2 \dots 0,5) \sum R_k \text{ kN} \quad (170)$$

bu yerda: R_1 -yurish uskunasiga tuproqning normal ta’sir kuchi; kN.

f_m -mashinanining yurishidagi qarshilik ko‘rsatuvchi kuchni hisobga oluvchikoeffitsient ..: (Ilova P.1.).

$m_t, m_{pos}, m_{ish.}$ - traktor, posangi va ishchi jihozining massasi. t.

$\sum R_v$ -urinma va normal qazuvchi kuchlarning vertikal o‘qdagi proeksiysi; kN.

$\sum R_u, \sum R_n$ -tuproqni qazishdagi urinma va normal kuchlar. kN.

α -otkos nishabining gorizontga nisbatan og‘ish burchagi; grad. ($\alpha=30\dots45^0$).

P_f -freza-sochgichli kanal qazgich ishchi jihoziga sarflanadigan quvvat, kVt.

V_f -frezaning aylanishlar tezligi. m/s.

$$F_{ish} = \sum R_b, \text{ kN} \quad (171)$$

bu yerda: $\sum R_b$ -qazuvchi kuchning bo‘ylama tashkil etuvchisi.kN.

$$\sum R_b = A \cdot K_k \cdot 10^3, \text{ kN} \quad (172)$$

$$F_i = x \cdot (m_t m_{pos} + m_{ish.}) \cdot V_{yu} / t_{tez}^{-1}, \text{ kN} \quad (173)$$


Mashinaning yurishiga ketgan quvvati. kVt.:

$$R_{yu} = \frac{\sum F \cdot V_{io}}{\eta_{ym}}, \text{ kVt.} \quad (174)$$

$\eta_{um}=0,85$; frezaning F.I.K.

Mashina dvigateliga tushadigan quvvat:

$$P_{dv} = (1,05 \dots 1,07) \cdot (P_f + P_{yu}), \text{ kVt.} \quad (175)$$



8-chizma. Freza-sochgichli kanal tozalagichga ta'sir etuvchi kuchlar.

1-traktor; 2-ishchi jihozini ramasi; 3-ishchi jihizi; 4-posangi.

Amaliy ish № 8.

Mavzu: KAVALER TEKISLAGICH MASHINASINI HISOBLASH. (2 soat).

Ishning maqsadi: Kavalerlarni tekislagich mashinalarining tuzilishi, ishlash jarayoni va hisoblash asoslarini o'rganish.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Kavalerlarni tekislagich mashinalari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar bilan tanishing.
2. Old ag'dargichli kavaler tekislash mashinalarini konstruktiv tuzilishi, ishlash jarayoni tegishli ishchi burchaklarini rostlash usullari, yutuq va kamchiliklarini o'rganing.
3. Old ag'dargichli kavaler tekislagich mashinasini konstruktiv sxemasini tuzing va ishchi jihozini rostlash usullarini ko'rsating.

Hisoblash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar

9-jadval.

№	Ko‘rsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1	Dvigatel quvvati, P _{dv} , kVt	37	90	50	70	60	78	90	110	100	110
2	Grunt toifasi	I	II	I	II	II	I	II	II	I	II
3	Qamrash burchagi, α , grad	45	50	60	70	80	90	55	65	70	90
4	Kesish burchagi, β , grad	55	50	56	55	45	40	55	54	53	50

Kavaler tekislagichlar kanal va transheyalardan chiqqan tuproqni surib, tekislashda ishlatiladi. Ishlatiladigan mashina quvvati 37...110 kVt. Surib-ag‘daruvchi ish jihozining balandligi 0,8...1,75 m. Uzunligi esa 2,5...6,8 m, ag‘dargichning qamrash burchagi 45...90° gacha, tuproqni kesish burchagi 55° va ish unumdarligi 200...1000 m³/soat gacha bo‘ladi.

Ag‘dargichni balandligi:

$$H_{ag\cdot d} = (0,20 \dots 0,22) \cdot \sqrt[3]{P_{dv}}, \text{ m} \quad (176)$$

bu yerda: R_{dv}—dvigatel quvvati, kVt

Ag‘dargich uzunligi, m.

$$l_{ag\cdot d} = (0,885 \dots 0,997) \cdot \sqrt[3]{P_{dv}}, \text{ m} \quad (177)$$

Texnik ish unumdarligi, m³/soat.

$$P_t = \frac{3600 \cdot V_t \cdot K_t}{T_d}, \text{ m}^3/\text{soat} \quad (178)$$

bu yerda: V_t—ag‘dargich oldida hosil bo‘lgan tuproq hajmi, m³ $V_t = A \cdot l_{ag\cdot d}$, m³
A—tekislanayotgan tuproqning ko‘ndalang kesim yuzasi, m²

$$A = \frac{h_{ag\cdot d}^2}{2 \tan \varphi}, \text{ m}^2 \quad (179)$$

bu yerda: φ —tekislagich va gorizont orasida hosil bo‘lgan tabiiy burchak, grad. $\varphi = 40^\circ \dots 60^\circ$

T_d — bir davrni bajarish uchun sarflanadigan vaqt, sek.

K_g — davriy ishlaydigan mashinalar uchun qabul qilinadigan koeffitsient.

$$T_d = L_k/V_k + L_s/V_s + L_s/V_{salt} + t_u; \text{sek} \quad (180)$$

bu yerda: L_k —tuproqni kesish masofasi: $L_r = 5 \dots 6$ m.
 L_s —tuproqni surish masofasi: m. $L_p = 20 \dots 100$ m.
 V_k -tuproqni kesishdagi tezlik: $V_k = 0,5 \dots 0,7$ m/s.
 V_s -tuproqni surishdagi tezlik, $V_s = 1,9 \dots 2,0$ m/s.
 V_{salt} -salt yurishdagi (qaytish) tezlik, $V_{salt} = 4,5$ m/s.
 t_u -uzatmalarini qo'shish va ajratish uchun sarflanadigan vaqt. $t_u = 10 \dots 12$ s.

Grunt toifasi	I	II	III	IV
K_g	1	0,9	0,7	0,5

Yurishga qarshilik qiluvchi kuchlarning yig'indisi.

$$\sum F = R_{og} + R_1 f_m + R_2 \cdot f_1, \text{ kN} \quad (181)$$

bu yerda: R_{og} –tuproqni yig'ma qarshilik kuchi, kN.

$$R_{og} = F_1 + F_2 + F_3 + F_4, \text{ kN} \quad (182)$$

bu yerda: F_1 —tuproqni kesishdagi qarshilik kuchi, kN

$$F_1 = 10^3 \cdot h_{ag \cdot d} \cdot l \cdot \sin \alpha \cdot K_k, \text{ kN} \quad (183)$$

bu yerda: α -qarash burchagi, grad. $\alpha = 45 \dots 90^0$

K_k —tuproqni qazishdagi solishtirma qarshilik. Mpa, $K_k = 0,01 \dots 0,02$ Mpa

F_2 —tuproqni tuproq bilan ishqalanishidagi qarshilik kuchi, kN

$$F_2 = A \cdot l_{ag \cdot d} \cdot \sin \alpha \cdot \gamma_r \cdot f_t, \text{ kN} \quad (184)$$

bu yerda: A -ag'dargich oldidagi tuproqni ko'ndalang kesim yuzasi, m^2 .

γ_g —tuproqni solishtirma og'irligi, kN/ m^2 (Ilova P.3)

f_t —tuproqni tuproq bilan ishqalanish koeffitsienti. (Ilova P.3.).

F_3 —ag'dargich oldidagi tuproqni kesuvchi va suruvchi pichoqdagi bo'ylama qarshilik kuchi. kN.

$$F_3 = A \cdot l_{ag \cdot d} \cdot \cos \alpha \cdot \gamma_r \cdot f_t \cdot f_m, \text{ kN} \quad (185)$$

bu yerda: f_m -tuproqni metall bilan ishqalanish koeffitsienti.Ilova.P.3,)

F_4 —ag'dargich oldidagi tuproqni pichoq bo'ylab yuqoriga ko'tarilishidan hosil bo'lgan kuch. kN.

$$F_4 = A \cdot l_{ag \cdot d} \cdot \sin \alpha \cdot \gamma_g \cdot f_m \cdot \cos^2 \beta, \text{ kN} \quad (186)$$



bu yerda: β -tuproqni kesish burchagi, grad $\beta=55^0$

R_1 -mashina yurish jihoziga vertikal ta'sir kuchi. kN

R_2 -tayanch chang'isining normal reaksiya qarshiligi, kN.

f_m -o'rmalovchi yurish uskunasining yurish qarshilik koeffitsienti.

f^l_1 -tayanch chang'isining sirpanish qarshilik koeffitsienti. f_m, f^l_1 .(Illova P.1).



9-chizma. Kavaler tekislagich mashinasiga ta'sir etuvchi kuchlar.

$$\text{agar } \alpha > 10^0 \quad R_1 = G_b \cos \alpha + R_A \text{ kN.} \quad (187)$$

$$G_b = m_b \cdot g; \text{ kN} \quad (188)$$

$$\alpha = 10^0 \quad R_A = R_{ov} G_o \cos \alpha - R_2 \text{ kN} \quad (189)$$

bu yerda: R_{ov} -ag'dargich yordamida tuproqni qazishdagi vertikal kuch.kN.

$$R_{ov} = R_{og} \cdot \operatorname{ctg} \gamma; \text{ kN.} \quad (\gamma = 55^0 \text{ gacha}) \quad (190)$$

G_o -osma ish jihizi (ag'dargich) ning og'irlik kuchi; kN.

$R_2 - \sum M_A = 0$ shart orqali aniqlanadi; kn.

$$R_2 = \frac{R_{ob} \cdot l_1 + G_H \cos \alpha \cdot l_3 + R_{or} (h_z - h_z^1)}{l_2 - f_m^1 \cdot h_z}; \text{ kN.} \quad (191)$$

bu yerda: l_1, l_2, l_3 - ta'sir etuvchi kuch va reaksiyalarni mos ravishdagi elkalari m.

h_z - traktorga osma jihoz ramasini maxkamlanish nuqtasining joylashish balandligi; m

h_z^1 -kavaler tekislagich ish jihozining tuproqni kavlashdagi teng ta'sir etuvchi kuchni ag'dargichga qo'yilgan joydan tuproq yuzasigacha bo'lgan masofa. m

.

Amaliy ish № 9.

Mavzu: KANAL TUBI VA YON DEVORLARIDAGI NOTEKISLIKALARINI TEKISLOVCHI MASHINASINI HISOBLASH. (2 soat).

Ishning maqsadi: Kanallar tubi va nishabligini tekislovchi mashinalaring umumiy tuzilishi, ishlash jarayoni, qo'llash sohalari yutuq va kamchiliklarini o'rGANISH.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Mashina va ishchi jihozlari, turlari, sinfi, qo'llash sohalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishing.
2. Berilgan varianlar asosida mashinani umumiy hisobini bajaring.
3. Xulosa va takliflar.

Hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar.

10-jadval

№	Ko`rsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1	Mashinalar markasi	MB-10A	D-654A	D-582	MB-10A	D-654A	D-582	MB-10A	D-654A	D-582	MB-10A
2	Grunt toifasi.	I	II	I	II	II	I	II	II	II	I
3	Kanal chuqurligi, m	0,9	1,5	1,5	2,0	2,5	3,0	1,5	2,0	3,0	1,0
4	Tekislagichning yurish tezligi. V _m , m/ch.	44	81	73	92	162	73	142	81	73	92
5	Zanjirni tezligi, V _z ; m/s.	0,65	0,9	0,75	0,65	0,9	0,75	0,65	0,9	0,75	0,65
6	Vaqt birligi ichida to'kilgan cho'michlar soni. Z, to'k/min.	38	54	45	38	54	45	38	54	45	54
7	Mashina massasi, m, t.	14,8	23,6	21,5	14,8	30,5	21,5	14,8	23,6	21,5	14,8
8	Zanjirning qadami. t _z ; mm.	78,1	78,1	250	78,1	78,1	250	78,1	250	78,1	78
9	Fermani ko'tarilish balandligi. h _f ; m.	0,5	0,8	0,8	0,5	0,8	0,5	0,8	0,5	0,8	0,5

Kanalar sirtini tekislashdan asosiy maqsad- uning notekisliklarini kamaytirish,sizdirishni yo'qotish uchun qoplanadigan materiallarni yotqizishga tayyorlash va kanal devori qiyaliklarini mustahkamlash ishlarini bajarishdan iborat. Tekislash natijasida notekislik darajasi ± 5 sm, qoplanadigan yuzalarniki esa ± 3 sm bo'lishi talab etiladi.

Kanal sirtini tekislash mashinalari ichida temir yo'lda yuradigan ko'p cho'michli ish jihoziga ega bo'lgani yaxshi tekislashi bilan boshqa turlaridan ajralib turadi.Hisoblash jarayonini aynan shu turdag'i mashina misolida amalga oshiriladi.

- 1.Tuproqni kesish tezligi va kesiladigan qatlarni o'lchamlari.

Ko‘p cho‘michli (kurakchali) ish johozi bir vaqtning o‘zida ikkita yo‘nalishdagi harakatda bo‘ladi. Bular zanjirning tezligi va mashinaning yurish tezligi, m/s.

Absolyut qazish tezligini kosinuslar teoremasiga asosan aniqlanadi: m/s.

$$V_{a\delta c} = \sqrt{V_3^2 + V_M^2 - 2V_3 \cdot V_M \cdot \cos \alpha}, \text{ m/s} \quad (192)$$

bu yerda: V_z – zanjirni tezligi, m/s

V_m – mashinani yurish tezligi, m/s

α – zanjir va mashina tezliklari orasidagi burchak. $\alpha = 90^\circ$

demak $V = \sqrt{V_3^2 + V_M^2}$, m/s u xolda 10-chizmadan foydalanim,


$$\operatorname{tg} \gamma_c = \sqrt{\frac{V_M}{V_3}} \quad \gamma_c = 4 \dots 6^\circ \quad (193)$$

Cho‘mich (kurak) yordamida qirqiladigan tuproqni qalinligi:

$$\delta = l_2 \cdot \operatorname{tg} \gamma_c, \text{ m} \quad (194)$$

bu yerda: l_2 – cho‘michning qadami, m. $l_2 = 0,2 \dots 0,4$ m.

$$\operatorname{tg} \gamma_c = \sqrt{\frac{V_{lo}}{V_3}} \quad \gamma_c = 4 \dots 6^\circ \quad (195)$$



10-Chizma. Ko‘p cho‘michli kanal sirti va tubini tekislagich mashinasiga ta’sir etuvchi kuchlar.

Mashinaning texnik ish unumдорligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P_t = 0,06 \cdot q \cdot z \cdot \frac{K_t}{K_{io}} \text{ m}^3 / \text{soat} \quad (196)$$

bu yerda: K_t - cho‘michni xajmdan foydalanish koeffitsienti. $K_t=0,7\dots1,25$
 K_{io} – yumshatish koeffitsienti. (Ilova P.3.1.).

Yurishga qarshilik kuchlarining yig‘indisi. kN.

$$\sum F = f \cdot R + \sum R_g, \text{ kN} \quad (197)$$

bu yerda: $f=g$ ‘ildirakni temir yo‘ldagi dumalanish koeffitsienti. $f=0,01\dots0,02$

R-vertikal kuchlar yig‘indisining vertikal tashkil etuvchisi.kN.

$$R = m \cdot g + \sum R_{ov}, \text{ kN} \quad (198)$$

bu yerda: m – mashinanng massasi. T.

$\sum R_{ov}$ – kesuvchi kuchlar yig‘indisining vertikal tashkil etuvchisi.kN.

$$\sum R_{ov} = \sum R_u \cdot \sin \beta - \sum R_n \cdot \cos \beta, \text{ kN} \quad (199)$$

bu yerda: $\sum R_u$ – kesuvchi kuchlar yig‘indisining urinma tashkil etuvchisi. kN

β - kanal nishabining gorizontga nisbatan og‘ish burchagi. grad. $\beta=30\dots45^0$

$$\sum R_u = \frac{P_{III}}{V_3}, \text{ kN} \quad (200)$$

bu yerda: R_{ish} – ish jihoziga sarflanadigan quvvat. kVt.

$$P_{III} = \frac{P_k + P_{k\bar{y}} + P_{T,IO}}{\eta_{ym}}, \text{ kVt.} \quad (201)$$

bu yerda: P_k , $P_{k\bar{y}}$, $P_{T,IO}$ – tuproqni qazish, ko‘tarish va tashish uchun sarflanadiga quvvat, kVt.

η_{um} – yuritmaning F.I.K. ; $\eta_{um}=0,75$

$$P_k = 0,28 \cdot K_k \cdot P_t, \text{ kVt} \quad (202)$$

$$P_{k\bar{y}} = \frac{\Pi_T \cdot \gamma_T \cdot h_{k\bar{y}}}{3,6 \cdot 10^6}, \text{ kVt} \quad (203)$$

$$P_{T,IO} = \frac{\Pi_T \cdot \rho_T \cdot V_{L,K..}}{3,6 \cdot 10^6}, \text{ kVt} \quad (204)$$

bu yerda: K_k –tuproqni qazishdagi solishtirma qarshilik. mPa (Ilova P.2.)

γ_T -tuproqni solishtirma og‘irligi, N/m² (Ilova P.3.)

h_{ko} -tuproqni ko‘tarish balandligi. m $h_{ko}=h+(1,0\dots 1,5)$, m

$V_{t,yu..}$ –tasmali konveyerni tezligi, m/s ($V_{t,yu}=3\dots 5$ m/s)

P_t –tuproqni zichligi.kg/ m³. (Ilova P.3.1.)

ΣR_g —tuproq kesuvchi kuchning gorizontal tashkil etuvchisi, kN

$$\Sigma R_g = \Sigma R_u \cdot \sin \gamma_c , \text{ kN} \quad (206)$$

Mashinaning yurishiga sarflanadigan quvvat. kVt:

$$P_{yu} = \frac{\sum F \cdot V_{io}}{\eta}, \text{ kVt.} \quad (207)$$

bu yerda: V_{yu} -mashinaning harakatlanish tezligi. m/chas.

η -yuritmaning F.I.K. $\eta=0,86$

Sarflanadigan umumiyl quvvat. kVt.. kVt.

$$P_{um} = (1,05\dots 1,07) \cdot (P_{ish.} + P_{yu}); \text{ kVt.} \quad (208)$$

Amaliy ish № 10.

Мавзу: KANALLARGA BETON YOTQIZGICH VA BETONLARNI QIRQISH MASHINASINI HISOBLASH. (2 soat).

Ishning maqsadi: Kanallar sirtiga monolit betonlarini yotqizuvchi va yotqizilgan betonlarni qirqish mashinalarini tuzilishi, ishlash asoslari va hisoblash usularini o‘rganish.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Kanallar sirtiga qoplamlalar yotqizuvchi mashinalar, sinfi konstruktiv tuzilishlari ishlash jarayonlari bilan tanishing.
2. Kanallar sirtiga monolit betonlarni yotqizuvchi yarim-to‘la profilli va yangi yotqizilgan beton sirtiga tirtiq kesuvchi mashinalarni turlari, qo‘llanilishi,tuzilishi yutuq va kamchiliklarni o‘rganing.
3. Boshlang‘ich qiymatlar asosida mashinalarni umumiyl hisobini amalga oshiring.
4. Xulosa va texnik takliflar.

Kanallardagi suvni yerga shimalishi oldini olish maqsadida ularning sirtiga beton qatlami yotqizilib,shibbalanadi va ko‘ndalang hamda bo‘ylamasiga kesiladi. Betonni plita shaklida kesilishiga sabab, havo harakatini ta’siri yotqizilgan betonga deformatsiya uchun imkoniyat yaratish va qayta ta’mirlash ishlarini engillashtirishdir.

Kanallarga beton yotqizish: kanal o‘qi bo‘ylab mashina harakatining bo‘ylama va ko‘ndalang turlari mavjud. Mashinaning yurishi o‘rmalovchi,sirpanuvchi va temir

yo'llar orqali bajariladi. Bular ichida bunkersiz beton tarqatish usuli bilan ishlaydigan, o'rmalovchi yurish uskunasiga ega bo'lgan avtomatik boshqariladigan turlari, o'zlarining yuqori sifatli ish bajarishi xamda ish unumdoorligini yuqoriligi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Bundan tashqari qo'shimcha ishlar salmog'ini ham anchagina kamaytiradi. Mazkur turdag'i mashinalarni asosiy ko'rsatkich qiymatlari 11-jadvalda ko'rsatilgan.

Hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar.

11-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1	Mashinaning ishlashi bo'yicha turlari	Bo'ylama yotqiz.		Ko'ndalang yotqiz.		Bo'ylama yotqiz.		Ko'ndalang yotqiz.			
2	Beton aralashmasini tarqatish usuli.	Bunkersiz, to'liqsiz prof.		Bunkerli to'liq prof.							
3	Kanal chuqurligi, h. m	2,5	2,8	5,0	3,5	1,5	3,0	7,0	10,0	4,5	5,0
4	Kanal tubini eni, b. m.	3,0	4,0	8,0	6,0	0,8	1,5	6,0	7,0	2,5	5,5
5	Nishablik koeffitsienti, m	1:1,5	1:1	1:3	1:2,5	1:1,5	1:2	1:1,5	1:1,5	1:1,5	1:1,5
6	Bunker sig'imi, V _b m ³	-	3,0	-	6,0	2,4	3,3	-	8,0	5,0	4,0
7	Yotqiziladigan betonni qalinligi, δ _o , sm.	10	7	20	30	6	12	15	20	15	10
8	Suv solingan bunkerni sig'imi. V _v , m ³	0,8	2,0	1,2	2,5	1,8	1,9	2,2	2,0	1,5	2,1

1. Kanallarga beton yotqizish va ularni kesish mashinalarining asosiy ko'rsatkichlarini tanlash.

Bu ko'rsatkichlar kanal o'lchamlarini berilishiga va mavjud mashinalarning konstruksiyalariga qarab 12 jadval asosida beton yotqizadigan mashinaning turi va uning asosiy ko'rsatkichlari tanlanadi.

Beton yotqizadigan mashina va uning qismlari metall konstruksiyalarining og'irlilik kuchlari.

$$G_1 = \gamma_{\delta} \cdot l_p, \text{ kN}; \quad G_2 = \gamma_{uu} \cdot l_p, \text{ kN}; \quad G_3 = \gamma_{cu, \pi} \cdot l_p, \text{ kN} \quad (209)$$

$$G_4 = \gamma_c \cdot V_s, \text{ kN} \quad G_5 = \gamma_{\delta a} \cdot V_b, \text{ kN}; \quad G_6 = \gamma_p \cdot l_p, \text{ kN} \quad (210)$$

bu yerda: G₁, G₂, G₃, G₄, G₅, G₆ – beton yotqizgich, shibbalovchi, silliqlovchi uskunalarning, suv, beton aralashmasi va tirtiq kesuvchi ishchi jihozlarining og'irlilik kuchlari. kN.

γ_δ, γ_{uu}, γ_{cu, π}, γ_c, γ_{δa}, γ_p - beton yotqizadigan mashinasining, shibbalovchi uskunasining, silliqlovchi uskunasining, (suvning solishtirma og'irligi), (qorishma-betonning solishtirma og'irligi) va beton kesish uskunasining solishtirma material sig'imi.

($\gamma_{\delta}=18,525$ kn/m), $\gamma_u=1,7 \dots 2,0$ kn/m), ($\gamma_{cun}=1,2 \dots 2,2$ kn/m), ($\gamma_c=10$ kn/m),

($\gamma_{\delta a}=20 \dots 22$ kn/m), ($\gamma_p=8,5 \dots 9,5$ kn/m).

l_p -beton yotqiziladigan kanal perimetri. ($l_p=2,5 \dots 3,5$ m). $l_p=v_b$ m. bu yerda v_b - beton yotqiziladigan polosaning eni. m.

V_v - Suv solinadigan bunkurni hajmi. m^3 .

Beton yotqizadigan mashinasining yurish ishchi tezligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$V_{ro} = \frac{\Pi_T}{3600 \cdot l_n \cdot \delta \cdot \kappa_1}, \text{ m/s} \quad (211)$$

bu yerda: δ -yotqiziladigan beton qalinligi, m

κ_1 -qorishma betonning shibbalash koeffitsienti. $K_1=1,1 \dots 1,25$ m

2. Shiballovchi ish jihozining ko'rsatkich va qiymatlari.

2.1. Talab qilinadigan burchakli tebranish chastotasini quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$W = \frac{0,1 \cdot \delta^2 \cdot \kappa_1^2 \cdot e^{0,1\delta\kappa_1}}{l_a \cdot t}, \text{ rad/s} \quad (212)$$

bu yerda: e - natural logarifm asosi. $e=2,71$

l_a -shiballovchi ish jihozining tebranish amplitudasi. $l_a=0,03 \dots 0,05$ sm

t -shiballovchi ish jihozining shibbalashga sarflagan vaqt. S

$$t = \frac{b_{III}}{V_B}, \quad (213)$$

bu yerda: b_{shib} -shiballovchi ish jihozining eni. m. $b_{up}=0,25 \dots 0,5$ m

Tebranish uskunasiga qo'yiladigan tebranma harakatning yig'ma kinematik moment massasi debalansi quyidagicha aniqlanadi:

$$M_K = \frac{10^3 \cdot G_2 \cdot l_a}{g} \cdot h \cdot c^2 \quad (214)$$

bu yerda: l_a -shiballovchi ishchi uskunasining tebranishlar amplitudasi. ($l_a=0,03 \dots 0,05$ sm).

Beton yotqizadigan mashinasining maksimal yig‘ma tortish kuchi. kN.

$$\sum F = F_g + F_{ish.} \text{ kN} \quad (215)$$

bu yerda: F_g —beton yotqizadigan mashinani betonni bo‘ylama yotqizishda gorizontal harakatidagi qarshilik kuchi, kN

$$F_r = [G_1 + G_4 + G_5 - G_6 - (G^1_2 + G^1_3)] \cdot (f_m \pm l) = \\ [G_1 + G_4 + G_5 - l_n \cdot b_o \cdot h_B \cdot \gamma_B - (\gamma_M + \gamma_{cut}) \cdot (b + 2h \cdot ctg \alpha_k)] \cdot (f_m \pm i) \quad (216)$$

bu yerda: l_n —beton yotqiziladigan yuzanining ko‘ndalang kesim perimetri. m

$$l_n \approx b + 2 \frac{h}{\sin \alpha_k}; \text{ m}, \quad (217)$$

b_o —beton chiqadigan tuynukni eni, m $b_o = 0,2 \dots 0,3$ m

h_B —beton ustuning balandligi, m

α_k -kanal devori qiyaligini gorizontga nsbatan og‘ish burchagi; $\alpha_k = 30 \dots 45^\circ$

f_m —harakatdagi qarshilik koeffitsienti.

(relsda $f_m = 0,2 \dots 0,3$, o‘rmalovchi yurish uskunasida, $f_m = 0,1 \dots 0,15$).

i —kanalning bo‘ylama qiyaligi, $i = 0,005 \dots 0,01$

b ; h —kanalning tubini eni va chuqurligi. m.

$F_{ish.}$ —ish jihozining harakatdagi qarshilik kuchi. kN.

$$F_{ish.} = F_1 + F_2 + F_3 + F_4 + F_5, \text{ kN} \quad (218)$$

bu yerda: F_1 —beton ustunining qirqishda hosil bo‘ladigan qarshilik kuchi, kN

$$F_1 = K_b \cdot l_n \cdot b_o, \text{ kN:} \quad (219)$$

bu yerda: K_b —qorishma betonni solishtirma qirqish qarshiligi. $K_b = 5 \dots 6 \text{ kN/m}^2$

F_2 —shibbalovchi ish jihozining beton sirtida ishqalanishidan hosil bo‘ladigan qarshilik kuchi. kN

$$F_2 = G_2 \cdot f_1, \text{ kN} \quad (220)$$

bu yerda: f_1 —temir bilan beton yuzasidagi ishqalanish koeffitsienti. $f_1 = 0,2 \dots 0,5$

F_3 —silliqlovchi ish jihozining beton sirtida ishqalanishidan hosil bo‘ladigan qarshilik kuchi. kN

$$F_3 = G_3 \cdot f_2, \text{ kN} \quad (221)$$

bu yerda: f_2 —temir bilan qorishma beton sirtidagi ishqalanish koeffitsienti, $f_2 = 0,6 \dots 0,65$

F_4 —ish jihozlari oldida hosil bo‘lgan beton qismini surishdagi qarshilik kuchi. kN

$$F_4 = 0,5 \cdot f_3 \cdot \gamma_B \cdot (h_1 \cdot e_1 + h_2 \cdot e_2 + h_3 \cdot e_3); \kappa H., \text{ kN} \quad (222)$$

bu yerda: f_3 —qorishma beton ichki qarshilik koeffitsienti, $f_3=0,5\dots0,6$

h_1, h_2, h_3 —mos ravishda beton quttisi, shibbalovchi va silliqlovchi ish jihozlari oldidagibetonning balandligi , m. $h_1=0,1$ m, $h_2=0,05$ m, $h_3=0,03$ m

b_1, b_2, b_3 —mos ravishda beton quttisi shibbalovchi va silliqlovchi ish jihozlari oldidagi beton qorishmasining eni. $b_1=0,07$ m, $b_2=0,04$ m, $b_3=0,04$ m.

F_5 —tozalovchi kuraklar va yon tomon chang‘ilaridan hosil bo‘ladigan qo‘shimcha qarshilik kuchi. kN

$$F_5=(0,05\dots0,06) \cdot F_{ish.}, \text{ kN} \quad (223)$$

Mashinaning ish unumdorligi. m^3/ch . (pozitsion harakatdagi.)

$$P_t = 3,6 \cdot 10^3 \cdot b_{bet} \cdot \delta_o \cdot l_n \cdot T_s^{-1} \quad (224)$$

bu yerda: T_s - davr davomiyligi. sek.

$$T_s = (t_1 + t_2 + t_3) z_b + t_4 + t_5 + t_6 \quad (225)$$

bu yerda: t_1 -beton qorishmasini samosvaldan bunkerga ag‘darishga ketgan vaqt. (60...70 s.)

t_2 -bunkerni beton yukangan joydan to‘kish joyigacha harakat davomiyligi va yana qaytib yuklanishga kelgandagi vaqt.

t_3 -bunkerni ochib-yopish uchun sarflangan vaqt.(15...20 s).

t_4 -tebratma zichlagich bilan bir polosani shibbalashga sarflangan vaqt.s.

t_5 -tebratma zichlagichni orqaga qaytishi uchun ketgan vaqt. s.


t_5 -mashinani yangi joyga ko‘chishi va uni rostlashga ketgan vaqt.(60...70 s.)

z_b -bir polosani betonlashtirish uchun to‘kilgan bunkerlar soni

Quvvat balansi. kVt.

$$R_{dv} = R_{yu} + R_{t.yu} + R_{t.e} + R_{sil} + R_{nas} + R_{qo.sh}, \text{ kVt.} \quad (226)$$

bu yerda: R_{yu} ; $R_{t.yu}$; $R_{t.e}$; R_{sil} ; R_{nas} ; $R_{qo.sh}$ –mashinaning yurishiga, tasmali yuklagichni yuritmasiga, tebratgichlarga, silliqlovchi ish uskunasiga, suv nasosi yuritmasiga va qo‘shimcha qurilmalarga (yoritish, boshqarish va x.k.) sarflanadigan quvvatlar. kVt.



11-chizma. Beton yotqizgich mashinasining hisob chizmasi.

Beton yotqizgich mashinalarining asosiy ko'rsatkichlari.

12-jadval .

Ko'rsatkichlar	Ko'ndalang yotqizadigan		Bo'ylama yotqizadigan.		
	Bunkerli to'liqsiz profilli va otkoslari	Bunkerli to'liq profilli.	Bunkersiz to'liqsiz. profilli.	Bunkerli to'liq profilli.	Sirpanuvchi tebranmali .
Bunker hajmi, m ^v	2,4...8	3,3...5	-	2,5...8	1,5...2
Beton yotqizish qalinligi, sm	6...30	6...20	10...20	6...15	6...15
Kanal chuqurligi. m	2,5...10	1,5...6	2,5...9	1,5...6	1...1,5
Kanal tubini eni. m	4...8 i bolee	1,5...8	3...20	0,8...2,5	0,6...1,2
Nishablik koeffitsienti.	1:1,5...1:2,5	1:1...1:2	1:1,5...1:3	1:1,5	1:1...1:2
Yuritmasi.	Ko'p motorli, elektrik.	Ko'p motorli, elektrik.	Dizel gidravlik va dizel elektrik.	Ko'p motorli elektrik va dizel elektrik	Mexanik, elektrik.

Yuritma quvvati, kVt	50...125	120	125	50...100	10...15
Yurish uskunasi.	Relsda.	Relsda.	O‘rmalovchi va relsli.	Relsda.	Sirpauvchi.
Texnik ish unumdarligi, m ³ /soat.	20...80	15	60...225	25...120	15...30
Harakatlanish tezligi, m/min	1,0...1,5	18,0	3...6	0,4...1,5	0,5...1,8
Massasi, t	20...130	135	40...80	16...31	5...12

Amaliy ish № 11.

Mavzu: SUG‘ORILADIGAN YERLARDA YOPIQ GORIZONTAL DRENAJ QUVURLARINI ZOVUR QAZISH USULI BILAN YOTQIZUVCHI MASHINASINI HISOBLASH. (4 soat)

Ishning maqsadi: Sug‘oriladigan ekin maydonlarida yopiq gorizontal drenaj quvurlarini zovur qazish usuli bilan yotqizadigan mashinalarini tuzilishi turlari, ishlash jarayolari va hisoblash usullarini o‘rganish.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Drenaj yotqizadigan mashinalar, ularning sinfi, kostruktiv tuzilishi va ishslash asoslarini o‘rganing.
2. Yopiq gorizontal drenaj quvurlarini yotqizuvchi mashinalarining yutuq va kamchiliklarini aniqlang, hamda ularga qo‘yiladigan talablar bilan tanishing.
3. Berilgan variantlar asosida mashinani umuiy hisobini amalga oshiring.
4. Kamchiliklarini bartaf etish yuzasidan taklif va muloxazalaringizni yozing..

Hisoblash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar

13-jadval.

№	Ko‘rsatkichlar.	Variantlar									
		1-11	2-12	3-13	4-14	5-15	6-16	7-17	8-18	9-19	10-20
1	Grunt toifasi	I	II	I	II	I	II	I	II	I	II
2	Transheya eni, b, m	0,5	0,6	0,5	0,6	0,45	0,6	0,55	0,6	0,7	0,5
3	Transheya chuqurligi, h,m	2,5	3,0	3,5	4,0	4,5	3,0	2,5	4,0	4,5	3,0
4	Yotqizilayotgan quvur diametri, d _t , mm.	100	200	150	150	100	200	150	200	300	150
5	Cho‘michni to‘ldirish koeffitsienti, K _t	0,7	1,0	1,25	1,10	1,15	1,12	0,8	0,9	1,0	1,25
6	Passiv ish jihizi yordamida tuproqni ishlashdagi solishtirma qarshilik, K _o , MPa	0,07	0,11	0,17	0,07	0,11	0,07	0,11	0,17	0,11	0,07

7	Faol ishchi jihoz yordamida tuproqni ishlashdagi solishtirma qarshilik, K _k , Mpa.	0,012	0,058	0,120	0,050	0,180	0,130	0,065	0,012	0,200	0,070
8	Mashina massasi, m _m , t.	12,0	13,25	12,5	18,6	22,0	19,7	13,0	18,0	23,7	19,7

Quvur yotqizgichni eni; m

$$b_q = b - b_o, \text{ m} \quad (227)$$

bu yerda: b – transheyani eni, m

b_o – transheya devori va quvur yotqizgich quttisi orasidagi tirqish. m

b_o=0,01...0,03 m, b_o=0,03...0,06 m, turg‘un bo‘lmagan tuproqlar uchun.

$$h_q = h + h_o, \text{ m} \quad (228)$$

bu yerda: h – transheya chuqurligi, m

h_o – drenaj quttisining ish paytdagi er sirtidan yuqori qismining balandligi.

h_o=0,4...0,8 m

Drenaj quttisining uzunligi sug‘oriladigan erlar uchun. l_b=3...4 m. qabul qilinadi.

Drenaj quttisining umuiy hajmi:

$$V_q = b_q \cdot h_q \cdot l_q, \text{ m}^3 \quad (229)$$

Drenaj quttisi harakati davomida transheya devorlarining xar xil murakkab kuchlari ta’siri ostida bo‘ladi. Bu kuchlar qutti yon devorlariga transheya devorlaridagi tuproqning bosimi turlicha bo‘lib, ularni teng ta’sir etuvchisini bosim markazi deb ataluvchi–Dr. nuqtaga ko‘chirish mumkin. Bu nuqtaning koordinatalarini B (x; u;), desak, unda.

$$X = (0,4...0,5) \cdot l_k \text{ va } U = (0,4...0,6) \cdot h_k \text{ da bo‘ladi. (12-chizma).} \quad (230)$$

Kuchlarning teng ta’sir etuvchisi $\sum R_o$ gorizontga nisbatan ma’lum burchak ostida yo‘naltirilgan. Bu kuchlarning gorizontal $\sum R_{og}$ va vertikal $\sum R_{ov}$ tashkil etuvchilari.

$$\sum R_{or} = k^1 \cdot b_q \cdot h_q, \text{ kN} \quad (231)$$

bu yerda: k¹ – solishtirma bosim kuchi. kPa k¹=1...3 kPa

$$\sum R_{ov} = (0,2...0,5) \sum R_{og}, \text{ kN} \quad (232)$$

Mashinaning texnik ish unumdorligi asosan ko‘p cho‘michli ish jihozining ish unumdorligi bilan bog‘liq va u quyidagi formula yordamida aniqlanadi; m^3/soat .

$$P_t = 0,06 \cdot q \cdot z \cdot \frac{K_t}{K_{IO}}, m^3/\text{soat} \quad (233)$$

bu yerda: q -cho‘michning geometrik sig‘imi. litrda. $q \approx (0,8 \dots 0,9) \cdot h_{ch} \cdot b_{ch} \cdot l_{ch}$;

h_{ch} - cho‘michni balandligi; $h_{ch} = (1,4 \dots 1,5) \cdot l_{ch}$; dm.

b_{ch} -cho‘michni eni; $b_{ch} = b_t - (0,06 \dots 0,1)$; dm.

l_{ch} -cho‘michni uzunligi; $l_{ch} = (2,2 \dots 2,6) \cdot l_z$; dm.

l_z -zanjirning qadami. $l_z = 0,78; 1,0; 1,9; 2,03$. dm.

z -bir daqiqa ichida tuprog‘ini to‘kkan cho‘michlar soni.

$$Z = \frac{60 \cdot V_3}{l_K}, \text{ to‘k/min.} \quad (234)$$

bu yerda: V_z -zanjirning tezligi. m/s $V_z = 0,6 \dots 2,65$ m/s

l_k -cho‘michlarning qadami, m $l_k = 0,7 \dots 1,2$ m

Mashinaning yurish tezligi; m/soat.

$$V_{IO} = \frac{P_t}{h \cdot b}, \text{ m/soat} \quad (235)$$

Ko‘p cho‘michli ish jihozining harakat tezligini absolyut qiymati kosinuslar teoremasiga asosan.

$$V = \sqrt{V_3^2 + V_{IO}^2 + 2 \cdot V_3 \cdot V_{IO} \cdot \cos \alpha_{III}}, \text{ m/s} \quad (236)$$

bu yerda: $\alpha_{ish.}$ -ish jihozining gorizontga nisbatan og‘ish burchagi.grad. $\alpha_{ish.} = 30 \dots 45^0$

Absolyut tezlik gorizontga nisbatan β burchakka og‘ishini bilgan xolda, uni sinuslar teoremasiga asosan aniqlaymiz.

$$\sin \beta = \frac{V_3 \sin \alpha_{III}}{V}, \text{ bundan } \beta = \arcsin \frac{V_3 \alpha_{III}}{V}, \text{ grad}$$

Cho‘michlar yordamida qirqiladigan tuproq qalinligi,

$$\delta = \frac{V_{IO} \cdot l_K}{V} \cdot \sin \beta, \text{ m} \quad (237)$$

Mashinaning yurishdagi yig‘ma tortish kuchi. kN.

$$\sum F = f \cdot R + \sum R_T + R_{oT} + \sum oT + F_\phi + f^1 \cdot R_1 \quad (238)$$

bu yerda: R -traktorning reaksiya kuchi, kN

f ; f^1 – mashinaning yurish jihoziga va tayanch qismiga ta'sir etuvchi qarshiligin hisobga oluvchi koeffitsient .(Ilova P.1.).

$$R = (m_{tr} + m_{ish}) g + \sum R_v + R_{ov} - R_1 ; \text{kN.} \quad (239)$$

bu yerda: m_{tr} , m_{ish} - traktorning va ko‘p cho‘michli ish jihozining massasi. t.

$\sum R_v$ -urinma va normal qazuvchi kuchlarning vertikal o‘qdagi proeksiyasi, kN

$$\sum R_v = \sum R_u \cdot \sin \beta - \sum R_n \cdot \cos \beta , \text{ kN} \quad (240)$$

bu yerda: β -absolyut tezlikni gorizontga nisbatan og‘ish burchagi,grad ($\beta=45\dots50^0$)

$\sum R_u$ –tuproqni qazishdagi urinma kuch, kN

$$\sum R_u = \frac{P_{III}}{V_3} , \text{ kN} \quad (241)$$

bu yerda: R_{ish} –ish jihoziga sarflanadigan quvvat;kVt.

V_z –cho‘michli zanjirning tezligi; m/s.

$\sum R_n$ –tuproqni qazishdagi normal kuch;

$$\sum R_n = (0,5\dots0,8) \cdot \sum R_u , \text{ kN} \quad (242)$$

$\sum R_{ov}$ –faol ish jihoziga ta’sir kuchning vertikal tashkil etuvchisi.kN.

$$\sum R_{ov} = R_{og} \cdot \operatorname{ctg} \alpha ; \text{kN.} \quad (243)$$

bu yerda: α -tuproqni kesish burchagi. ($\alpha=30\dots50^0$)

R_{og} -qirib tozalovchi ish jihoziga ta’sir etuvchi kuchning gorizontal tashkil etuvchisi.

$$R_{og} = 10^3 \cdot K_o \cdot A ; \text{kN.} \quad (244)$$

bu yerda: K_o -qirgichning solishtirma qazish qarshiligi, MPa. $K_o=0,07;0,11;0,17$ mos ravishda 1; 2; 3 toifa tuproqlari uchun.

A -qirgichning yuzasi, m^2 .

$$A = v \cdot h_q ; \text{m}^2. \quad (245)$$

bu yerda: v -transheyaning eni, m.

h_q -qirgichning balandligi. m. $h_q=(0,4\dots0,6) \cdot h$; m.

$$P_{\text{иш}} = \frac{P_k + P_{k\ddot{y}} + P_{\text{лок}}}{\eta_{\text{ум}}}, \text{kVt.} \quad (246)$$

bu yerda: P_k , $P_{k\ddot{y}}$, $P_{\text{лок}}$ - tuproqni qazish, qazilgan tuproqni ko'tarish va yuklashda talab etiladigan quvvat, kVt.

$\eta_{\text{ум}}$ - yuritmaning F.I.K; $\eta_{\text{ум}}=0,75$

$$P_k = 0,28 \cdot K_k \cdot P_t, \text{kVt} \quad (247)$$

$$P_{k\ddot{y}} = \frac{\Pi_T \cdot \gamma_T \cdot h_{k\ddot{y}}}{3,6 \cdot 10^6}, \text{kVt} \quad (248)$$

$$P_{\text{лок}} = \frac{P_t \cdot \rho_T \cdot V_{T,IO..}}{3,6 \cdot 10^6}, \text{kVt} \quad (249)$$

bu yerda: K_k -tuproqni qazishdagi solishtirma qarshilik, mPa (Ilova P.2.)

γ_T -tuproqni solishtirma og'iriligi, N/m² (Ilova P.3.)

h_{k_0} -tuproqni ko'tarish balandligi. m $h_{k_0}=h+(2,0 \dots 2,5)$, m

$V_{t,yu}$ - lentali konveyerning tezligi, m/s ($V_{t,yu}=3 \dots 5$ m/s)

P_g -tuproqni zichligi, kg/m³. (Ilova P.3.1.)

R_1 -tayanch chang'isiga ta'sir etuvchi qarshilik kuchi, kN.

$$R_1 = G_{b,m} \cdot R + G_{ish} + \sum R_v \text{ kN.} \quad (250)$$

bu yerda: $G_{b,m}$ - bazoviy mashinaning og'irlik kuchi.. kN. $G_{b,m}=m_{tr} \cdot g$; kN.

R -bazaviy mashinaga ko'rsatiladigan reaksiya kuchi. kN.

G_{ish} -ishchi jihozlari (ko'p cho'michli va cutti) ning og'irlik kuchi. kN.

$\sum R_g$ - tuproqni kesishdagi gorizontal kuchlarning tashkil etuvchisi. kN.

$$\sum R_g = \sum R_u \cdot \cos \beta + \sum R_n \cdot \sin \beta, \text{ kN} \quad (251)$$

$\sum R_{og}$ -transheya devorlarining cutti devorlariga beradigan bosim kuchining gorizontal tashkil etuvchisi. kN.

$$\sum R_{og} = K^1 \cdot b_q \cdot h_q; \text{kN.} \quad (252)$$

bu yerda: K^1 -solishtirma bosim kuchi. kPa. ($K^1=1 \dots 3$).

$b_q \cdot h_b$ -quutting eni va balandligi. m.

F_f -sizdirgich materialining (filtr) cutti tuynugidan chiqishidagi qarshiligi va sizdirgich materialini qarshiliklaridan hosil bo'ladigan qarshilik kuch. Kn


$$F_f = K_f \cdot A_f, \text{ kN} \quad (253)$$

bu yerda: K_f -sizdirgichni yotqizishdagi solishtirma qarshiligi. kN/m^2 $K_f=32\dots36$ kN/m^2

A_f-sizdirgichning ko'ndalang kesim yuzasi; m²

$$A_\phi = b \cdot h_\phi - \frac{\Pi \cdot d^2}{4} \quad \text{m}^2 \quad (254)$$

bu yerda: h_f —sizdirgich qatlamining balandligi. м $h_f=1,1\dots1,2$ м.
 d_k —yotqiziladigan quvur diametri. м $d_k=0,076\dots0,30$ м



12-chizma.Drenaj yotqizgich mashinasiga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar.

Yurishiga sarflanadigan quvvat. kVt.

$$P_{IO} = \frac{\sum F \cdot V_{IO}}{\eta}, \quad kVt \quad (255)$$

bu yerda: η -yuritmaning F.I.K. $\eta = 0,75$

Harakat manbaasining (dvigatel) quvvati. kVt

$$P_{dv} = (1,05 \dots 1,07) \cdot (P_{ish} + P_{yu}); \text{ kVt} \quad (256)$$

Amaliy ish № 12.

